


II
2024

ELECTRONIC EDUCATION

SCIENTIFIC
JOURNAL



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Laqayev Saidaxmad Norjigitovich
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari

Ro‘ziyev Rauf Axmadovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir

Mirsanov Uralboy Mukhammadiyevich
pedagogika fanlari doktori DSc, dotsent

Editor-in-Chief

Saidaxmad Norjigitovich Lakayev
doctor of physical and mathematical sciences,
academician

Deputy Editor-in-Chief

Ruziyev Raup Akhmadovich
Candidate of Physical and Mathematical Sciences,
Associate Professor

Responsible editor

Mirsanov Uralboy Mukhammadiyevich
doctor of Pedagogical Sciences DSc, Associate
Professor

TAHRIRIYAT A’ZOLARI

Sobirov Baxodir Boypulatovich – NavDPI rektori,
texnika fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Djurayev Risbay Xaydarovich – akademik
(O‘zbekiston)

Shokin Yuriy Ivanovich – akademik (Rossiya)

Negmatov Sayibjon Sodiqovich – akademik
(O‘zbekiston)

Aripov Mersaid Mirsiddikovich – fizika-matematika
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Turabdjano Sadritdin Maxamatdinovich – texnika
fanlari doktori, akademik (O‘zbekiston)

Raximov Isomiddin Sattarovich – fizika-matematika
fanlari doktori, professor (Malayziya)

Shariy Sergey Petrovich – fizika-matematika fanlari
doktori, professor (Rossiya).

Ajimuxammedov Iskandar Maratovich – texnika
fanlari doktori, professor (Rossiya).

Ibraimov Xolboy – pedagogika fanlari doktori,
akademik (O‘zbekiston)

Yunusova Dilfuza Isroilovna – pedagogika fanlari
doktori, professor (O‘zbekiston)

Aloyev Raxmatillo Djurayevich – fizika-matematika
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna – pedagogika
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Mo‘minov Bahodir Boltayevich – texnika fanlari
doktori, professor (O‘zbekiston)

Korshunov Igor Lvovich – texnika fanlari nomzodi,
dotsent. (Rossiya)

Kolbanyov Mixail Olegovich – texnika fanlari
doktori, professor. (Rossiya)

Verzun Natalya Arkadyevna – texnika fanlari
nomzodi, dotsent. (Rossiya)

Maxmudova Dilfuza Mileyevna – pedagogika
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Xudjayev Muxiddin Kushshayevich – texnika
fanlari doktori, dotsent (O‘zbekiston).

Xolmurodov Abdulhamid Erkinovich – fizika-
matematika fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Stelmashonok Yelena Viktorovna – iqtisod fanlari
doktori, professor. (Rossiya)

Tatarnikova Tatyana Mixaylovna – texnika fanlari
doktori, professor. (Rossiya)

Alekseyev Vladimir Vasilyevich – texnika fanlari
doktori, professor. (Rossiya)

Satikov Igor Abuzarovich – fizika-matematika fanlari
nomzodi, dotsent. (Belarus)

Boyarshinova Oksana Aleksandrovna – fizika-
matematika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)

Makarenya Sergey Nikolayevich – texnika fanlari
nomzodi, dotsent. (Belarus)

Sednina Marina Aleksandrovna – texnika fanlari
nomzodi, dotsent. (Belarus)

Ibragimov Abdusattar Turgunovich – texnika fanlari
doktori, dotsent (O‘zbekiston)

Kabiljanova Furuza Azimovna – fizika-matematika
fanlari nomzodi, dotsent. (O‘zbekiston)

Lutfillayev Maxmud Xasanovich – pedagogika fanlari
doktori, dotsent (O‘zbekiston).

Ergasheva Gulruksor Surxonidinovna – pedagogika
fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston).

Norov Abdusait Muradovich – texnika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston).

Yuldoshev Ismoil Abriyevich – pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston).

Karaxonova Oysara Yuldoshevna – pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori, (O‘zbekiston).

Kurbaniyazova Zamira Kalbaevna – pedagogika
fanlari doktori, dotsent (O‘zbekiston).

Nasirova Shaira Narmuradovna – texnika fanlari
doktori, professor (O‘zbekiston).

Nasridinov Ilxam Burxanidinovich – texnika fanlari
nomzodi, dotsent (O‘zbekiston).

Xujjiyev Sodiq Oltiyevich – biologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O‘zbekiston).

Suvonov Olim Omonovich – texnika fanlari nomzodi,
dotsent (O‘zbekiston).

O‘tapov Toyir Usmonovich – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston).

Ibragimov Alimjon Artikbayevich – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston).

Yodgorov G‘ayrat Ro‘ziyevich – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston).

Xudoyorov Shuxrat Jumaqulovich – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

Baxodirova Umida Baxodirovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston).

Toxirov Feruz Jamoliddinovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston).

Xamroyeva Dilafro‘z Namozovna – fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston).

Jo‘rakulov Tolib Toxirovich – texnik muharrir

© Mazkur jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi rayosatining 2022-yil 28-fevraldagi 312/6 qaroriga asosan Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

Adress: Navoiy sh., Janubiy ko‘chasi, 1-A uy. (1-A, South Street, Navoi city) URL: <http://www.el-nspi.uz>

MUNDARIJA

Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

Ergasheva G. S. <i>TA'LIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TADQIQOTLAR: MAZMUN VA TAHLIL</i>	7
Xamroyev Y. X. <i>TA'LIM JARAYONI UCHUN MOBIL ILOVALARNI JORIY ETISH MUAMMOLARI</i>	19
Yuldoshev I. A. <i>AXBOROT TIZIMLARI YORDAMIDA TALABALAR BILIMINI PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA QILISH MASALALAR</i>	32
Tursunov M. A. <i>TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI DARSLIKNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI</i>	43
Abdullayeva D. A. <i>TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY O'QUV VOSITALARDAN FOYDALANISH</i>	53
Sindarov S. K. <i>BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM MUHITLARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI</i>	63
Djurayev D. D. <i>TARMOQ TEXNOLOGIYALARI BO'YICHA AMALIY VA LABORATORIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI</i>	76
<i>EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKA ELEMENTLARINI QISHLOQ-XO'JALIK MASALALARINI YECHISHDA QO'LLANILISHI</i>	88
Jo'rakulov T. T., Raximov F.A., Sa'dullayeva M. L. <i>TA'LIM JARAYONIDA MOBIL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK JIHATLARI</i>	95
Taylakov U. K. <i>UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY O'QUV VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i>	107
Ruziyev R.A. <i>UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATINI SHAKLLANTRISH</i>	121
<i>Tabiiy fanlarda axborot texnologiyalari</i>	
Nurutdinova F. M. <i>INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BOKIMYO FANIDAN DARSLARNI O'TISHDA TALABALAR KOMPETENTLIGINI MODELLASHTIRISH</i>	132

СОДЕРЖАНИЕ

Информационные технологии в точных науках

Эргашева Г. С. МЕЖДУНАРОДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ОЦЕНКЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ: СОДЕРЖАНИЕ И АНАЛИЗ	7
Хамроев Я. Х. ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОБИЛЬНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС	19
Юлдошев И. А. ВОПРОСЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ	32
Турсунов М. А. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЦИФРОВОГО УЧЕБНИКА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ	43
Абдуллаева Д. А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ ПРИ РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ	53
Синдаров С. К. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СРЕДЫ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ	63
Джусраев Д. Д. МЕТОДОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ПРАКТИЧЕСКИХ И ЛАБОРАТОРНЫХ КУРСОВ ПО СЕТЕВЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ	76
Холбеков Ш. О., Очиллов Ш. ПРИМЕНЕНИЕ ТЕОРИИ ВЕРОЯТНОСТЕЙ И ЭЛЕМЕНТОВ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ СТАТИСТИКИ ПРИ РЕШЕНИИ ЗАДАЧ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА	88
Журакулов Т. Т., Рахимов Ф. А., Саъдуллаева М. Л. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОБИЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ	95
Тайлаков У. К. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ НАУКИ «ИНФОРМАЦИЯ И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ» В ВУЗАХ	102
Рузиев Р. А. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	121

Информационные технологии в естественных науках

Нурутдинова Ф. М. МОДЕЛИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ПРОХОЖДЕНИИ УРОКОВ БИОХИМИИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА	132
--	-----

CONTENT

Information technologies in exact sciences

Ergasheva Gulruksor INTERNATIONAL RESEARCHES ON ASSESSMENT OF EDUCATION QUALITY: CONTENT AND ANALYSIS	7
Khamroev Yakubzhon PROBLEMS OF IMPLEMENTING MOBILE APPLICATIONS INTO THE EDUCATIONAL PROCESS	19
Yuldoshev Ismail ISSUES OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS OF STUDENT KNOWLEDGE USING INFORMATION SYSTEMS	32
Tursunov Mirolim DIDACTIC POSSIBILITIES OF DIGITAL TEXTBOOK IN THE EDUCATIONAL PROCESS	43
Abdullayeva Dildora USE OF MODERN EDUCATIONAL TOOLS IN THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND TECHNOLOGICAL COMPETENCE OF TECHNICAL UNIVERSITY STUDENTS	53
Sindarov Sadriddin DIDACTICAL POSSIBILITIES OF THE DIGITAL EDUCATION ENVIRONMENT IN THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND TECHNOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS	63
Djurayev Davron METHODOLOGY OF ORGANIZING PRACTICAL AND LABORATORY COURSES ON NETWORK TECHNOLOGIES	76
Kholbekov Shokhsuvor, Ochilov Shokhruzbek APPLICATION OF PROBABILITY THEORY AND ELEMENTS OF MATHEMATICAL STATISTICS IN SOLVING AGRICULTURAL PROBLEMS	88
Jurakulov Tolib, Rakhimov Furkat, Sadullaeva Maftuna DIDACTICAL PRINCIPLES OF USING MOBILE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS	95
Taylakov Umid USE OF MODERN EDUCATIONAL TOOLS IN TEACHING THE SCIENCE OF "INFORMATION AND INFORMATION TECHNOLOGIES" IN HIGH SCHOOLS	102
Raup Ruziev ORGANIZATION OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE COMPUTER SCIENCE TEACHERS IN THE SYSTEM OF CONTINUING EDUCATION	121

Information technologies in natural sciences

Nurutdinova Feruza MODELING STUDENTS' COMPETENCE WHEN TAKING BIOCHEMISTRY LESSONS BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH	132
--	-----

Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

TA'LIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TADQIQOTLAR: MAZMUN VA TAHLIL

Ergasheva Gulruksor Surxonidinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika univesiteti, professor

Annotasiya: Maqolada ta'lim sifatini baholashning xalqaro tizimi haqida umumiy tushunchalar, xalqaro qiyosiy tadqiqotlarni tashkil etuvchi tashkilotlar, baholash sohasidagi zamonaviy xalqaro tadqiqotlar, ularning turlari, mazmuni, maqsad va vazifalari hamda respublikamizda ta'lim sifatining baholash xalqaro tizimini joriy etishning me'yoriy asoslari, mazmuni va amalga oshirilayotgan ishlar tahlili yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim sifati, baholash tizimi, xalqaro tashkilotlar, xorijiy tajribalar, xalqaro mezon, o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, kompyuter savodxonligi, kompetensiya.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ОЦЕНКЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ: СОДЕРЖАНИЕ И АНАЛИЗ

Эргашева Гулрухсор Сурхонидиновна

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низоми, профессор

Аннотация: В статье рассмотрены общие понятия о международной системе оценки качества образования, о организациях организующих международные сравнительные исследования, современные международные исследования в области оценки, их виды, содержание, цели и задачи, а также нормативная база и содержание. освещены вопросы внедрения международной системы оценки качества образования в нашей республике и анализ проводимой работы.

Ключевые слова: качество образования, система оценки, международные организации, зарубежный опыт, международные критерии, читательская грамотность, математическая грамотность, естественно-научная грамотность, компьютерная грамотность, компетентность.

INTERNATIONAL RESEARCHES ON ASSESSMENT OF EDUCATION QUALITY: CONTENT AND ANALYSIS

Ergasheva Gulrukhsor

Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi, professor

Abstract: The article discusses general concepts about the international system for assessing the quality of education, about organizations organizing international comparative studies, modern international research in the field of assessment, their types, content, goals and objectives, as well as the regulatory framework and content. The issues of introducing an international system for assessing the quality of education in our republic and an analysis of the work being carried out are covered.

Keywords: quality of education, assessment system, international organizations, foreign experience, international criteria, reading literacy, mathematical literacy, natural science literacy, computer literacy, competence.

Kirish. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini davlat ta’lim standartlari talablari asosida shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Ta’lim sifatini baholash sohasidagi har xil zamonaviy xalqaro va ichki tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina ta’lim tizimlari tez o‘zgaruvchan iqtisodiyotga mos kelmaydi va o‘quvchilarga kundalik hayotda va ishlab chiqarishda qo‘llanadigan tanqidiy, ijodiy fikrlash, birgalikda ishlash va doimiy o‘zgaruvchan texnologiyalarga moslashish qobiliyati kabi zarur ko‘nikmalarni bermaydi. Bilimlarni baholash metodlarini isloh qilish tizimidagi o‘zgarishlar nafaqat ta’limdagi har qanday tizimli o‘zgarishlarni amalga oshirish, balki bugungi kundagi global o‘zgarishlar uchun ham zarur. Faqatgina ular maktab o‘quvchilarini muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta’minlashlari mumkin.


Adabiyotlar tahlili. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar bilan bog‘liq ma’lumotlar tahlili mazkur soha tashkilotchilari Xalqaro Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti hamda Ta’lim natijalarini baholash Xalqaro Assotsiatsiyasi natijalariga asoslanadi. PISA tadqiqoti mazmuniga doir ma’lumotlar, topshiriq namunalari va ular bilan ishlashga doir tavsiyalar quyidagi adabiyotlarda [1; 7]: TIMSS tadqiqoti [8], TALIS tadqiqoti [15:16] keng yoritib berilgan.

Respublikamizda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda 997-sonli “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi” tashkil etildi [2]. Ta’lim sifatini

baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan o‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi ishlab chiqildi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro qiyosiy tadqiqotlar: Xalqaro Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (XIHRT) (Organisation for Economic Cooperation and Development- **OECD**) va Ta’lim natijalarini baholash Xalqaro Assotsiatsiyasi (XTA)–(**IEA**-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) [4] (1-rasm) tashkilotlari tomonidan olib boriladi.

Xalqaro qiyosiy tadqiqotlar turli mamlakatlardagi ta’lim tizimidagi holat va o‘zgarishlarni aniqlash va taqqoslash, shuningdek ta’lim sohasidagi strategik qarorlarning samaradorligini baholash imkonini beradi.



1-rasm. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha qiyosiy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar

Taqqoslash turli axborot manbalarini mushohadali o‘rganish, nufuzli xalqaro musobaqalar natijalarini taqqoslash doirasida emas, balki ta’limdagi xalqaro ustuvorliklarni inobatga olgan hamda turli mamlakatlar o‘quvchilarining bir xil namunaviy vositalardan foydalangan holda o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida amalga oshiriladi.

Dunyoda yuzdan ortiq davlat o‘z mamlakatida joriy etilgan ta’lim sifatini xolisona baholash maqsadida PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, EGRA hamda EGMA kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etadi. Jumladan, O‘zbekiston ham birinchi marta PISA va boshqa xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtiroki ta’minlandi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda ta’lim sifatini baholashga doir bir qator xalqaro tadqiqotlarning turlari mavjud bo‘lib, quyida mazkur tadqiqotlarning maqsadi, mazmuni haqida ma’lumot beriladi (1-jadval)

1-jadval

Ta’lim sifatini takomillashtirishga oid xalqaro tadqiqotlar mazmuni

№	Xalqaro tadqiqotlarning nomi	Talqini	Asosiy maqsadi va mazmuni	Auditoriya, yosh	O‘tkazish muddati
1	PISA (Programme for International Student Assessment)	O‘quvchilar bilimini xalqaro baholash dasturi	15 yoshli o‘quvchi yoshlarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini turli xil mantiqiy testlar ko‘rinishida baholashdan iborat xalqaro loyiha dasturi. O‘quvchi yoshlarni ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va maktabda egallagan bilim va tajribalarni inson faoliyatining turli sohalariga oid hayotiy vazifalarni hal etishda keng miqyosda qo‘llash qobiliyatini baholash (o‘qish, matematik, tabiiy-ilmiy, muammolarni yechish, moliyaviy, kompyuter savodxonlik)	15 yoshli o‘quvchilarda	(har uch yilda) 2001, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015, 2018, (2021)
2	TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study)	matematik va tabiiy-ilmiy ta’lim sifatini xalqaro monitoring tadqiqoti	Boshlang‘ich va o‘rta maktabda matematika va tabiiy-ilmiy ta’lim sifatini qiyosiy baholashga qaratilgan. Bu ikki fan mamlakatning intellektual imkoniyatlarini rejali baholash sohasida muhim ahamiyatga ega.	4-, 8-sinf-lar matematika, tabiiy fanlar, 11-sinflar chuqurlashtirilgan matematika, fizika boyicha har 4 yilda	(har besh yilda) 2015, (2020)
3	PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study)	matnning o‘qish va tushunish	Dunyo mamlakatlarida boshlang‘ich maktab 4-sinf o‘quvchilarining matnning o‘qish va tushunish sifatini va darajasini taqqoslash, o‘qish jarayonini takomillashtirish maqsadida milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash va	4-sinf o‘quvchilari Har 5 yilda	(har besh yilda) 2001, 2006, 2011, 2016, (2021)

			talqin qilish. O‘qishning o‘quv va darsdan tashqari mashg‘ulotlaridagi o‘qish turi baholanadi.		
4	EGRA (The Early Grade Reading Assessment)	boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash	EGRA baholash modelining maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko‘nikma va malakalarini hamda o‘qish savodxonligini oshirishdan iborat	Har yili o‘tkaziladi	2009 yildan
5	EGMA (The Early Grade Mathematical Assessment)	boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligini baholash	EGMA baholash modelining maqsadi 2-4 sinf o‘quvchilarining og‘zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat.		2006 yildan
6	TEDS-M (The Teacher Education and Development Study in Mathematics)	TEDS-M turli mamlakatlar boshlang‘ich va o‘rta maktablarda matematikadan o‘qituvchilarni tayyorlashini o‘rganib chiqadi.	Tadqiqotda pedagogika OTMlari bitiruvchi kurs talabalarining matematika va matematika o‘qitishga tayyorgarligi baholanadi	Bitiruvchi kurs talabalari	2007 -2008 yildan o‘tkazila boshlagan
7	ICCS (International Civic and Citizenship education Study)	Xalqaro fuqarolik va fuqarolarni o‘qitish ta’limi	Fuqarolik kompetensiyasini baholash [5]. Bu fuqarolik ta’limi sifatini xalqaro o‘rganish. Tadqiqot fuqarolik ta’limi sohasidagi kompetentlik va konseptual tushunish, yoshlarni ularga moyilligi va munosabatlari haqida ma’lumot beradi.	ICCS sakkizinchi sinf o‘quvchilarining o‘rtacha yoshi 13,5 yoki undan yuqori bo‘lganiga qarab baholaydi. 9-sinf maqsadli aholi sifatida belgilangan.	(har besh yilda) 1971, 1999, 2009, 2016, 2022
8	ICILS (International Computer and Information Literacy Study).	Axborot va kompyuter savodxonligini baholash	Axborotlar asrida o‘quvchilarning o‘qishga, ishga va hayotga tayyorgarligini baholash, ishtirokchi mamlakatlar 8-sinf o‘quvchilarining kompyuter va axborot savodxonligi sohasidagi tayyorgarligi darajasini o‘rganish, aniqlangan farqlarni tahlil qilish, milliy va xalqaro darajada bu sohada o‘qitishni rivojlantirish	8-sinf o‘quvchilarida	2013, 2018, 2023
9	PIAAC (Programme for the International Assessment of Adult	Voyaga etganlarning kompetensiyalarini xalqaro baholash	Mehnat yoshidagi aholining ko‘nikma va kompetensiyasini baholash bu katta yoshdagi insonlar ko‘nikmalari va kompetensiyalarini xalqaro o‘rganish. Tadqiqot “o‘qish	Mehnatga layoqatli aholi o‘rtasida	2008

	Competencies)	dasturi	savodxonligi”, “matematik savodxonlik”, “texnologik boy muhit muammolarini hal qilish” kabi tayanch kompetensiyalarni tadqiqi etishga yo’naltirilgan.		
10	TALIS (Teaching and Learning International Survey)	Ta’lim berish va o’qishni xalqaro o’rganish	OECDning xalqaro o’qituvchilar korpusi tadqiqotlari, o’qituvchilar ishlaydigan sharoitlar va maktablardagi o’quv muhiti haqida birinchi bo’lib o’tkazilgan xalqaro qiyosiy tadqiqotdir. O’qituvchining kasbiy fazilatlarini o’quvchi-larning maktabda erishgan yutuqlarini belgilovchi asosiy omil bo’lib, bir necha yil davomida yuqori sifatli o’qitish sust rivojlangan o’quvchilar orasida mavjud bo’lgan bilim etishmasligini bartaraf qilishi mumkin.TALIS xalqaro tadqiqotida qatnashish muhimdir.		2008, 2013, 2018
11	AHELO (Assessment of Higher Education Learning Outcomes)	OTM bitiruvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholash	Davlatlarga oliy ta’lim bitiruvchilarining kasbiy kompetensiyasi xalqaro standartlarga muvofiqligini baholash; o’qitish sifati va oqishni yaxshilash maqsadida o’z bitiruvchilarining o’qitish natijalarini xalqaro standartlar bilan taqqoslash imkonini beradi.	Bitiruvchi kurs talabalari	2012 yildan qo’llanilgan

Umumiy o’rta ta’lim sifatini baholashda uchta asosiy xalqaro qiyosiy tadqiqotlar - PISA, TIMSS va PIRLS dasturlari bir-birini to’ldiradi. Ushbu uchta tadqiqotning bir vaqtni o’zida o’tkazilishi ta’lim tizimining turli jihatlarini baholashga sharoit yaratadi. PISA, TIMSS va PIRLS tadqiqotlarining natijalarini taqqoslash bizga boshlang’ich va o’rta maktablarda o’qish, matematika va tabiiy fanlarning xususiyatlarini aniqlash va xalqaro hamjamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim ustuvorliklari nuqtai nazaridan umumiy ta’lim sifatini baholash imkonini beradi. Keling, ta’lim sifatini o’rganish bo’yicha asosiy xalqaro dasturlarni batafsil ko’rib chiqaylik.

PISA (Programme for International Student Assessment) - o’quvchilarning savodxonligini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqot dasturi bo’lib, dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o’quvchi yoshlarning o’qish, (matnni tushunish), matematika va

tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajalarini hamda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini turli xil testlar yordamida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o‘quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashi, egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqatiga baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. PISA - OECD homiyligida o‘tkazilgan Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi [6].

TIMSS – bu ta’lim natijalarini baholash Xalqaro Ta’lim Assotsiatsiyasi tomonidan o‘tkaziladigan (XTA-IEA) matematik va tabiiy-ilmiy ta’lim sifatini (Trends in Mathematics and Science Study) xalqaro monitoring tadqiqi. Har to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladigan ushbu tadqiqot matematik va tabiiy-ilmiy fanlardan 4 va 8-sinf o‘quvchilarining, shuningdek, matematika va fizika chuqurlashtirib o‘qitiladigan maktablarda 11-sinf o‘quvchilarining tayyorgarligini baholaydi. To‘rt yillik o‘quv sikllari to‘rtinchi sinf o‘quvchilari sakkizinchi sinf o‘quvchilari bo‘lganlarida erishilgan natijalarni taqqoslash, shuningdek, boshlang‘ichdan asosiyga o‘tish davrida o‘quvchilarning matematik va tabiiy fanlar bo‘yicha tayyorgarligidagi o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradi [7].

Ushbu tadqiqotning vositalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quvchilar, o‘qituvchilar, maktab ma‘muriyati, ta’lim sohasidagi ekspertlar, tadqiqot sifatini kuzatuvchilar uchun testlar, so‘rovnomalar;
- tadqiqotni tashkil etish va o‘tkazishning metodik ta‘minoti, erkin javoblar bilan topshiriqlarni tekshirish bo‘yicha qo‘llanma, ma‘lumotlarni kiritish uchun qo‘llanma;
- sinf va o‘quvchilarni tanlash va xulosalarni kiritish dasturiy ta‘minoti;
- o‘quvchining adabiy o‘qish tajribasini qo‘llashni o‘rganish maqsadida o‘qish;
- ma‘lumotni o‘zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o‘qish.

Matematika va fizika chuqur o‘rganilishiga ixtisoslashgan maktablarda o‘rta maktab bitiruvchilarining ta’lim sifatini o‘rganish. Ushbu ikki fan mamlakatlarning

intellektual salohiyatini va uning o‘sb kelayotgan avlodining yangi texnologiyalardan foydalanish va takomillashtirish qobiliyatini baholash nuqtai nazaridan ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

PISA va TIMSS o‘rtasidagi asosiy farq. PISA va TIMSS dasturlarining asosiy farqi eng avvalo ularning turli xil yosh va sinflar toifasida o‘tkazilishidan iboratdir. Masalan, PISA 15 yoshli o‘quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan bo‘lsa, TIMSS esa muayyan yoshdagi o‘quvchilarning emas, balki to‘rtinchi va sakkizinchi sinf o‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholaydi. Shu bilan birga, TIMSS baholashlari o‘quv dasturlariga asoslangan bo‘lsa, PISA esa, o‘quvchilar egallagan bilim va ko‘nikmalarini real muammolarni hal qila olishlarini baholashga qaratiladi. TIMSS aynan maktab bilimlarni o‘zlashtirish darajalarini baholasa, PISA bilim va ko‘nikmalarni maktabda, uyda va jamoatchilik orasida qo‘llay olish darajalariga alohida e‘tibor qaratadi.

PIRLS – matnni o‘qish va tushunish “Xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi taraqqiyot” xalqaro loyihasi turli mamlakatlardagi boshlang‘ich maktablari 4-sinf o‘quvchilarining matn o‘qish va tushunish sifatini taqqoslash imkonini beradi. Tadqiqotlar 2001 yildan boshlab har besh yilda bir marta o‘tkaziladi. U IEA shafeligida amalga oshiriladi. Xalqaro tadqiqotlarni tashkillashtirish uchun barcha mas’uliyat Boston kolleji Chestnut Hill (Massachusetts shtati, AQSh) zimmasiga tushadi. O‘zbekistonda ushbu tadqiqot Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan amalga oshiriladi. O‘qishlar 4-sinfni tugatgan o‘quvchilar uchun o‘qish sifatini tasdiqlaydi, chunki bu to‘rtinchi o‘quv yili bolalar rivojlanishidagi muhim bosqich hisoblanadi, shu vaqtga qadar o‘quvchilar o‘qishni keyingi bilim olish uchun vosita bo‘lib qoladigan darajada egallashi kerak.

PIRLS tadqiqotlari o‘quvchilar darsdan va maktabdan tashqarida ko‘proq foydalanadigan o‘qishning ikki turini baholaydi: tadqiqotning konseptual qoidalariga muvofiq, badiiy va ma’lumotli matnlarni o‘qish paytida o‘qish qobiliyatining to‘rtta guruhi baholanadi: aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish; xulosalarni shakllantirish;

ma'lumotlarni talqin qilish va sintez qilish; matn tarkibini, til xususiyatlarini va tarkibini tahlil qilish va baholash. Medianarga ilova Rossiya Ta'lim Akademiyasining Ta'limni rivojlantirish strategiyasi instituti tomonidan PIRLS konsepsiyasiga muvofiq tayyorlangan va demo versiyada Internetga ochiq holda joylashtirilgan o'qish va diagnostika vositalarining sifatini tekshirish uchun matnni misolini keltiradi.

TEDS - bu o'qituvchilar ta'limi bo'yicha xalqaro tadqiqot (boshlang'ich va o'rta maktab matematika o'qituvchilarining tayyorgarligini baholaydi), (“Matematikada o'qituvchilar uchun ta'lim va taraqqiyot”). Tadqiqot 4-kurs pedagogika universitetlari talabalarining matematika va matematikani o'qitish bo'yicha tayyorgarligini baholaydi [8; 9].

ICCS - bu fuqarolik ta'limini xalqaro tadqiq etadigan yirik tadqiqot sanaladi. IEA tomonidan amalga oshiriladi. Dastlab 1971 yilda o'tkazilgan bo'lib, 9 mamlakat ishtirok etgan bo'lsa, 18 yildan so'ng 1999 yilda 28 mamlakat ishtirok etgan. Birinchi tadqiqot shuni ko'rsatdiki, hamma mamlakatlar ham fuqarolik masalalarini o'qitishga yondashmagan [10, 4-b.]. Loyihaning asosiy maqsadi – fuqarolik sohasidagi bilimlarni sinovdan o'tkazish asosida o'quv yutuqlarini o'rganish, asosiy tushunchalarni anglash va sohada kompetensiyalarni shakllantirish uchun besh yillik sikl bo'yicha (2013-2017 yillar) xalqaro jadvalga muvofiq fuqarolik ta'limi sifatini xalqaro qiyosiy o'rganishni tashkil etish va o'tkazish. Ijtimoiy-gumanitar fanlar va amaliyotlar, ya'ni maktablar yoshlarni 21-asr fuqarolari roliga qanday tayyorlaydi, shuningdek ularning tayyorgarligini baholaydi 14 yoshda, ular jamiyatning faol ishtirokchisi bo'lishga moyil. Ushbu tadqiqotda ishtirok etish, ayniqsa, davlatlar uchun mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlardan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishdagi sezilarli kechikish tufayli juda muhimdir. Ushbu tadqiqotlar fuqarolik ta'limi sohasidagi ta'lim muassasalarining strategiyasini aniqlashda ham katta rol o'ynaydi [11].

ICILS - Axborot va kompyuter savodxonligini xalqaro o'rganish (International Computer and Information Literacy Study). ICILS bugungi kunda juda muhim

savolga javob berish uchun ishlab chiqilgan: talabalar raqamli dunyoda o‘qish, ishlash va yashashga qanchalik tayyor? Tadqiqot talabalarning kompyuter va axborot savodxonligi (CIL)dagi xalqaro farqlarni o‘lchaydi. Savodxonlikning bu turi o‘quvchilarning uyda, maktabda, ish joyida va jamiyatda samarali ishtirok etish uchun izlanish, ijodkorlik va muloqot uchun kompyuterdan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Talabalar faoliyatiga qo‘shimcha ravishda, tadqiqot o‘quvchilarning uy va maktab muhiti haqida ko‘plab kontekstli ma’lumotlarni to‘playdi. ICILS ta’lim tizimlari va siyosatchilarga CIL bilan bog‘liq ta’lim dasturlari konteksti va natijalari to‘g‘risida muhim ma’lumotlar manbasini taqdim etadi. Birinchi marta IEA tomonidan amalga oshirilgan. ICILS tadqiqotida ta’lim sifatini baholashga zamonaviy yondashuvlar, xalqaro tadqiqot materiallarini moslashtirish tajribasi va maxsus kompyuter dasturlaridan foydalangan holda ishlarni bajarish tajribasi tanishtirildi [12].

PIAAC - bu katta yoshdagi insonlar ko‘nikmalari va kompetensiyalarini xalqaro o‘rganish (Voyaga yetganlarning kompetensiyalarini xalqaro baholash dasturi) PIAAC loyihasi OECD tomonidan kattalar ko‘nikmalari va asosiy kompetensiyalari to‘g‘risida ma’lumot olish maqsadida 2008 yildan beri amalga oshirilmoqda. Tadqiqot “o‘qish savodxonligi”, “matematik savodxonlik”, “texnologik jihatdan boy muhitda muammolarni yechish” kabi aniq kompetensiyalarga qaratilgan. Bu sizga tasvirni aniqlashga imkon beradi. Atelnye, kattalar aholi professional va hayot orbitasida. Ushbu loyihani amalga oshirish birinchi marta katta yoshdagi aholining asosiy kompetensiyalari darajasini baholash, boshqa mamlakatlardagi inson kapitalining holatini taqqoslash imkonini berdi [13].

TALIS (Teaching and Learning International Survey), OECDning xalqaro o‘qituvchilar korpusi tadqiqotlari, o‘qituvchilar ishlaydigan sharoitlar va maktablardagi o‘quv muhiti haqida birinchi bo‘lib o‘tkazilgan xalqaro qiyosiy tadqiqotdir [14; 15]. O‘qituvchining kasbiy fazilatlarini o‘quvchilarning maktabda erishgan yutuqlarini belgilovchi asosiy omil bo‘lib, bir necha yil davomida yuqori sifatli o‘qitish sust rivojlangan o‘quvchilar orasida mavjud bo‘lgan bilim

yetishmasligini bartaraf qilishi mumkin. TALIS xalqaro tadqiqotida qatnashish muhimdir.

AHELO (Assessment of Higher Education Learning Outcomes)- OTM bitiruvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholash [16]. Davlatlarga oliy ta’lim bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyasi xalqaro standartlarga muvofiqligini baholash; o’qitish sifati va oqishni yaxshilash maqsadida o’z bitiruvchilarining o’qitish natijalarini xalqaro standartlar bilan taqqoslash imkonini beradi.

Xulosa. Xalqaro baholash tadqiqotlarda ishtirok etish mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o’rni to’g’risida xulosalar chiqarish imkonini beradi; Milliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim mazmunini xalqaro standartlar darajasida takomillashtirish, xalqning ommaviy savodxonlik darajasini orttirish; yoshlarning raqamli dunyoda kasbiy faoliyat yuritish, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, xalqaro rivojlangan davlatlar o’rtasida munosib o’rin egallash imkonini beradi. Shuningdek, xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. PISA for Development Assessment and Analytical Framework reading, matematiks // www.oecd.org/about/publishing/corrigenda.htm. @OECD 2017. 180 p.
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” 997-son 08.12.2018.// <http://lex.uz/docs/4097073>
3. O’quvchilar savodxonligini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. Qo’llanma. Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent-2019 y. 64 b.
4. <https://rcokio.ru/mezhdunarodnye-issledovaniya-kachestva-obrazovaniya/>.
5. Современные международные системы оценки качества образования // <https://znanio.ru/medianar/78>

6. <https://www.oecd.org/pisa/>
7. <https://timssandpirls.bc.edu/timss2019/>.
8. <http://teds.ky.gov> a
9. <https://www.iea.nl/studies/iea/teds-m>
10. ICCS 2009 International Report: Civic knowledge, attitudes, and engagement among lowersecondary school students in 38 countries // https://www.iea.nl/sites/default/files/2019-04/ICCS_2009_International_Report.pdf.
11. <https://www.iea.nl/studies/iea/iccs#section-626>
12. <https://www.iea.nl/studies/iea/icils>
13. <https://www.oecd.org/skills/piaac/>.
14. <https://www.oecd.org/education/talis/>
15. Teaching and Learning International Survey Insights and Interpretations // https://www.oecd.org/education/talis/TALIS2018_insights_and_interpretations.pdf.
16. <https://www.oecd.org/education/skills-beyond-school/ahelo-main-study.htm>

Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

TA’LIM JARAYONI UCHUN MOBIL ILOVALARNI JORIY ETISH MUAMMOLARI

Xamroyev Yoqubjon Xayitboyevich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayoniga mobil ta’limni joriy etishga oid olimlarning ishlari tahlili o’rganilgan hamda ta’lim jarayoni uchun mobil ilovalarni joriy etish muammolari va yechimlari keltirilgan.

Tayanch soʻzlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot-ta’lim muhiti, mobil ilova, tizimli-faoliyat yondashuv, motivatsiya, ijodiy qobiliyat.

ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОБИЛЬНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС

Xamroev Yakubzhon Xaitmboevich

Самаркандский институт сельскохозяйственных инноваций и исследований

Аннотация: В данной статье изучен анализ работ ученых, привыкших к внедрению мобильного образования в учебно-воспитательный процесс высших учебных заведений, а также представлены проблемы и пути решения внедрения мобильных приложений в учебный процесс.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, информационно-образовательная среда, мобильное приложение, системно-деятельностный подход, мотивация, творческие способности.

PROBLEMS OF IMPLEMENTING MOBILE APPLICATIONS INTO THE EDUCATIONAL PROCESS

Khamroev Yakubzhon

Samarkand Institute of Agricultural Innovation and Research

Abstract: This article examines the analysis of the works of scientists who are accustomed to the introduction of mobile education into the educational process of higher educational institutions, and also presents the problems and solutions to the implementation of mobile applications in the educational process.

Key words: information and communication technologies, information and educational environment, mobile application, system-activity approach, motivation, creativity.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz ta’limi va tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ayni paytda uzluksiz ta’lim tizimida, jumladan oliy ta’lim muassasalarini ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun ilmiy

asoslangan zamonaviy o‘quv vositalarini va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning har bir bosqichida turli usullari qo‘llanilgan. Hozirgi vaqtga kelib esa, oliy ta’lim muassasalarini ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda tizimli-faollik yondashuvini qo‘llash zarurati paydo bo‘lmoqda. Tizimli-faollik yondashuvini qo‘llashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. “Chunki ayni paytda global tarmoqning ta’lim olishga oid imkoniyatlari rivojlanishi tufayli kompyuter texnologiyalardan, jumladan mobil qurilmalardan foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda” [1]. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayonini tizimli-faoliyat yondashuv asosida tashkil etishda mobil ta’lim muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, ayni paytda oliy ta’lim muassasalarining ta’lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan, xususan, mobil ta’limdan foydalanishni ilmiy asoslangan yondashuvlarini joriy etish lozim.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda, ya’ni ta’lim jarayonini takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar U.SH.Begimkulov [2], G.S.Ergasheva [3], N.I.Taylaqov [4], F.M.Zakirova [5], M.H.Lutfillayev [6], A.A.Abdiqodirov [7], U.M.Mirsanov [8], M.R.Fayziyeva [9], T.T.Shoyardonov [10], A.O.Norbekov [11], U.B.Baxodirova [12], P.M.Jalolova [13] kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Jumladan, U.SH.Begimkulov [2] ta’lim jarayonini axborotlashtirish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ularning ishlarida oliy ta’lim muassasalarini ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda ta’lim muhitlaridan foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilgan. A.A.Abdiqodirov [7] ta’lim jarayoniga masofaviy ta’limni joriy etishga oid tadqiqot ishlarini olib borgan. G.S.Ergasheva [3], M.H.Lutfillayev [6] lar oliy ta’lim muassasalariga elektron ta’lim resurslarini joriy etish nazariyasi va amaliyotiga oid izlanishlar olib borgan. Ularning tadqiqotlarida fanlarni o‘qitish samardorligini oshirishda va talabalarni mustaqil ta’limini

takomillashtirishda didaktik elektron ta’lim resurslardan foydalanishni taklif etgan. N.I.Taylaqov [4], F.M.Zakirova [5], U.M.Mirsanov [8], M.R.Fayziyeva [9], A.O.Norbekov [11] lar oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlash mexanizmlarini ishlab chiqqan. Shuningdek, ularning tadqiqotlarida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda didaktik elektron ta’lim resurslar va axborot-ta’lim muhitlaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqqan. U.B.Baxodirova [12], P.M.Jalolova [13] lar oliy ta’lim muassasalarida virtual ta’lim texnologiyasidan foydalanishga oid tadqiqot ishlarini olib borgan. Ularning ishlarida laboratoriya mashg‘ulotlarini virtual laboratoriyalardan foydalanib tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni tadbiq etish mexanizmlariga oid tadqiqotlar Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida O.V.Volkova [14], E.S.Matosov [18], U.S.Munayev [19], M.A. Surxayev [21], L.M.Ivkina [15], D.V.Luchaninov [29], F.V.Shkarban [22], Andrija Bernik [32], A.V.Karmanovskiy [16], G.M.Kuleshova [26], B.A.Kondratenko [17], N.V.Akamova [23], A.V.Danilkevich [24], L.F.Adriana [27], Adriano Del Pino Lino [31], O.V.Nartova [20], M.A.Sorochinskiy [30], N.V.Lomonosova [28], A.A.Drobishevskiy [25] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Xususan, O.V.Volkova [14], E.S.Matosov [18] lar ta’lim jarayonida global internet tarmog‘idan foydalanish mexanizmlariga oid tadqiqot ishlarini olib borgan. Ularning tadqiqotlarida mashg‘ulotlarni olib borishda va talabalarning mustaqil ta’lim olishida global tarmoqdan foydalanishni taklif etilgan. U.S.Munayev [19], M.A. Surxayev [21], L.M.Ivkina [15], D.V.Luchaninov [29], F.V.Shkarban [22], Andrija Bernik [32] lar bo‘lajak informatika mutaxassislarini tayyorlashda raqamli ta’lim texnologiyalaridan, xususan ta’lim muhitlaridan foydalanishga oid izlanishlar olib borgan. A.V.Karmanovskiy [16], G.M.Kuleshova [26] lar oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni joriy etish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqot ishlarini olib borgan. B.A.Kondratenko [17], N.V.Akamova [23], A.V.Danilkevich [24], L.F.Adriana [27], Adriano Del Pino Lino [31] lar ta’lim jarayoniga axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muammolari va yechimlariga oid izlanishlar olib borgan. O.V.Nartova [20], M.A.Sorochinskiy [30] lar ta’lim jarayonida mashg‘ulotlarni loyihalashda axborot-ta’lim muhitlaridan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqqan. N.V.Lomonosova [28] oliy ta’lim muassasalarida aralash ta’lim texnologiyasidan foydalanish metodikasini ishlab chiqqan. A.A.Drobishevskiy [25] talabalarni mustaqil ta’limini kompyuter texnologiyalari yordamida tashkil etish muammolarini o‘rgangan. Uning tadqiqotida mustaqil ta’lim topshiriqlarida kompyuterning amaliy dasturlaridan foydalanishni taklif etgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ishlarida ta’lim jarayonida multimedia texnologiyalardan foydalanish metodikasi, mashg‘ulotlarni loyihalashda axborot-ta’lim muhitlaridan, ta’lim portallaridan va ta’limga oid veb-saytlardan foydalanish mexanizmlari, mashg‘ulotlarni tashkil etishda masofaviy va aralash ta’lim texnologiyalaridan foydalanish usullari, talabalarning mustaqil ta’limida raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalanishga oid tadqiqot ishlari olib borilgan. Biroq ularning tadqiqotlarida ta’lim jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanishga e’tibor qaratilmagan.

Shu bilan birga D.O.Koroleva [1], A.P.Avramenko [35], M.A.Grigoreva [36], V.A.Kuklev [33], A.A.Kapina [34], S.R.Sakibayev [37] larning ishlarida ta’lim jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqot ishlari olib borilgan.

Jumladan, D.O.Koroleva umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayoniga mobil texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqqan. Shuningdek, mobil va tarmoq texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha o‘qituvchilar malakasini oshirish, asosiy umumiy ta’lim darajasida tayanch ta’lim dasturlarini loyihalash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan [1].

A.P.Avramenko chet tilidan og‘zaki nutqini rivojlantirish uchun mobil texnologiyalarni qo‘llash, o‘qituvchini darslarga mobil texnologiyalarni muvaffaqiyatli integratsiyalashuvida zarur bo‘lgan komponentlari aniqlashtirilgan. Shuningdek, xorijiy tillarni o‘qitishda mobil ilovalardan foydalanish mezonlari ishlab

chiqilgan hamda mobil texnologiyalar va web-kvest ta’lim texnologiyasini integratsiyalash asosida darslarni tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan [35].

M.A.Grigoreva maktab informatika fanini o‘qitishda mobil texnologiyalaridan foydalanishni taklif etgan. Uning tadqiqotida o‘quvchilarning informatika faniga oid mantiqiy, algoritmik, kreativ fikrlashini rivojlantirishda mobil texnologiyalardan foydalanish mexanizmini ishlab chiqqan [36].

V.A.Kuklev ochiq masofaviy ta’limda mobil texnologiyalardan foydalanish muammolari va yechimlariga oid izlanishlar olib borgan. Shuningdek, mobil texnologiyalar yordamida elektron o‘quv materiallari bilan ishlashning mustaqil, interaktiv rejimidan va interfaol axborotdan foydalanish, bilimlarni mustaqil egallash orqali o‘z-o‘zini nazorat qilish metodikasini ishlab chiqqan hamda kognitiv faoliyat jarayonida yuzaga keladigan mobil ta’lim muammolari, qo‘shimcha ma’lumot manbalaridan foydalanish mexanizmlari keltirilgan [33].

A.A.Kapina bo‘lajak o‘qituvchining mobil texnologiyalardan foydalanishga tayyorligi aniqlashtirilgan. Unda uchta yetakchi komponent aniqlangan: qiymat-motivatsion (o‘qituvchining o‘quv jarayonida mobil texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish uchun motivatsiyasi aniqlangan); kognitiv (mobil texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari va ulardan o‘quv jarayonida to‘g‘ri foydalanish haqida xabardorlikni rivojlantirishga imkon beradigan zarur bilimlarni olishga e’tibor qaratish; operativ faoliyat (maxsus ko‘nikma va malakalar majmuini shakllantirish, maqsadga muvofiq va maqbul bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan kasbiy malakalarni shakllantirish). Shuningdek, uning tadqiqotida ta’lim jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanishga tayyorlik komponentlarini shakllantirish darajalari ishlab chiqilgan: yuqori, yetarli, quyi [34].

Ushbu olimlarning tadqiqotlarida ta’lim jarayonida mobil texnologiyalaridan foydalanishga oid tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, biroq oliy ta’lim muassasalarida matematika ta’limida foydalanishga e’tibor qaratilmagan. Shu bilan birga S.R.Sakibayevning “Формирование профессиональных компетенций будущих учителей математики с использованием мобильных приложений”

nomli dissertatsiyasida bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda mobil ilovalardan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari aniqlashtirilgan va bo‘lajak matematika o‘qituvchisining mobil ilovalardan foydalanish sohasidagi axborot kompetentsiyasini baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, matematika fanlarini o‘qitish jarayonida mobil ilovalardan foydalanishning ilmiy va uslubiy jihatdan yondashuv asoslangan [37].

Mazkur olimning tadqiqoti asosan matematika ta’limida mobil texnologiyalaridan foydalanishga qaratilgan bo‘lib, ammo oliy ta’lim muassasalarida matematika ta’limi uchun mobil texnologiyalarni ishlab chiqish va talabalarning mustaqil ta’limida foydalanishga e’tibor qaratilmagan. Shuning uchun ilgari surilayotgan tadqiqot, ya’ni oliy ta’lim muassasalarida oliy matematika fanini o‘qitishga mo‘ljallangan mobil ilovalarini ishlab chiqish va uni joriy etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mobil ta’lim texnologiyalari yuqori ta’lim salohiyatiga ega. Mobil texnologiyalar matematika ta’lim jarayonini individuallashtirishni, shu jumladan talabani ta’lim olishi uchun hissiy jozibadorligini ta’minlaydi. Shuningdek, Individuallashtirish imkoniyati mustaqil va tashabbuskor ish hajmini oshiradi [1].

Bu borada M. V.Kuimova [38], K. Anastasiya [38], T.Alexey [38], B.Al-Takhyneh [39] larning fikriga ko‘ra, matematika ta’limida mobil texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanilsa, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga, ularning o‘quv maqsadlariga erishishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu mualliflarning bildirishicha, bugungi kunda matematika ta’limi sohasida mobil texnologiyalardan foydalanish muammolari to‘laligicha yechilmagan.

B. Al-Takhyneh [39], K.Fabian [40], K.J.Topping [40], I. Barron [40] lar oliy matematika fanidan mobil ilovalardan foydalanishning mumkin bo‘lgan ta’lim afzalliklarini ta’riflaydi. Ularning bildirishicha, matematika ta’limida mobil texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni ta’minlaydi: matematika faniga oid formulalarni, ta’riflarni qayta eslash; funksiya grafiklarini qurish; matematika faniga

oid elektron manbalardan foydalanish; geometrik tasavvurlarini shakllantirish; matematikaga oid bilimlarni mustaqil ravishda sinab ko‘rish.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan olimlarning ishlarini tahlil etish asosida oliy ta’lim muassasalarida matematika ta’limida mobil texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy o‘quv vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ammo mobil texnologiyalarning yuqorida keltirilgan imkoniyatlariga qaramay, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari matematika ta’limiga joriy etish talab darajasida emas. Shuning uchun matematika ta’lim va tarbiya jarayoniga mobil texnologiyalarni tadbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ilgari surilayotgan tadqiqot ham ushbu masalaga qaratilgan bo‘lib, ya’ni oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayoniga mobil texnologiyalarni joriy etishdan iborat hisoblanadi. Buning uchun dastlab, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayoniga mobil texnologiyalarni joriy etish holatini tahlil etish lozim degan xulosaga kelib, Navoiy davlat pedagogika institutida mobil ta’limni joriy etish holati o‘rganildi. O‘rganish vaqtida oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va talabalar bilan suhbatlar, anketa so‘rovlar o‘tkazildi. Navoiy davlat pedagogika institutida olib borilgan kuzatishlar asosida mobil texnologiyalarni joriy etishga oid quyidagi turkum muammolar borligi aniqlandi:

- fanlarni o‘qitishga va talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etishga oid mobil versiyali o‘quv vositalar yetarli darajada emas;
- mobil qurilmalarga mo‘ljallangan o‘quv vositalarni ishlab chiqishga oid talablar va tamoyillarni takomillashtirish zarurati mavjud;
- mobil ta’limni joriy etishga oid aniq mexanizmlarni takomillashtirish zarurati mavjud;
- talabalarning bilimini baholash va nazorat qilish uchun mobil versiyali standart va nostandart testlar yetarli darajada emas;
- talabalarning mustaqil ta’limini mobil texnologiyalar yordamida tashkil etishni ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish orqali talabalarning mobil texnologiyalardan samarali foydalanishga oid motivatsiyasini va ijodiy qobiliyatini oshirishga hamda ularning mustaqil ta’limini samarali tashkil etishga va kreativ fikrlashini rivojlantirishga erishiladi. Shuningdek, talabalarni ko‘ngilochar ma’lumotlarni o‘qish, videoroliklarni ko‘rishga va turli onlayn muloqotlar qilishni sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Королева, Д.О.Использование мобильных и сетевых технологий в обучении школьников // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. 2018. – 24 с.

2. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – 280 б.

3. Эргашева Г.С. Биология таълимида интерактив дастурий воситалардан самарали фойдаланишни такомиллаштириш // Педагогика фанлари доктори (Dsc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – 56 б.

4. Тайлақов Н.И. Узлуксиз таълим тизими учун ўқув адабиётлари янги авлодни яратишнинг илмий-педагогик асослари (Информатика курси мисолида) // Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2006. – 362 б.

5. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических вузах // Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2008. – 42 б.

6. Лутфиллаев М.Х. Олий таълим ўқув жараёнини такомиллаштиришда ахборот технологияларини интеграциялаш назарияси ва амалиёти

(Информатика ва табиий фанлар мисолида) // Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – 246 б.

7. Абдуқодиров А., Пардаев А. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти // Монография. – Тошкент, 2009. –146 б.

8. Mirsanov U.M., Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.

9. Файзиева М.Р. Ўқув жараёнига мослашувчи WEB тизимларни яратиш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017. – 189 б.

10. Шоймардонов Т.Т. Педагог кадрлар малакасини ошириши ва касбий фаолияти мониторингини ташкил этишнинг электрон тизими // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2017. – 148 б.

11. Норбеков А.О. Педагогика олий таълим муассасаларида компьютер таъминоти фанини ўқитиш самарадорлигини ошириш методикаси // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация. – Қарши, 2021. –171 б.

12. Баходирова У.Б. Микробиология фанини ўқитишда виртуал таълим технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Қарши, 2020. – 156 б.

13. Жалолова П.М.Олий таълимда “Атом физикаси”га оид лаборатория машғулотларида ахборот технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш //Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019. – 152 б.

14. Волкова О.В. Подготовка будущего специалиста к межкультурной коммуникации использованием технологии веб-квестов // Автореферат

диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Белгород, 2010. – 25 с.

15. Ивкина Л.М. Формирование методической готовности будущих учителей информатики в условиях образовательной платформы «мега-класс» // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Красноярск – 2017. – 145 с.

16. Кармановский А.В. Формирование готовности студентов к непрерывному профессиональному образованию в условиях дистанционного обучения // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Сочи, 2011. – 188 с.

17. Кондратенко Б.А. Персонализация профессионального обучения с использованием информационно-коммуникационных технологий // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Калининград, 2015. – 205 с.

18. Матосов Э.С. Развитие методики формирования информационных и коммуникационных компетенций студентов непрофильных вузов с использованием ресурсов Интернет // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2009. – С. 9-15.

19. Мунаев У.С. Развитие системного мышления будущих бакалавров педагогического образования по профилю «Информатика» при изучении объектно-ориентированного программирования // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Махачкала, 2021. – 23 с.

20. Нартова О.В. Педагогические условия формирования мотивации учебной деятельности учащихся в открытом образовательном пространстве // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Барнаул, 2011. – 259 с.

21. Сурхаев М.А. Развитие системы подготовки будущих учителей информатики для работы в условиях новой информационно-

коммуникационной образовательной среды // Диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Москва, 2010. – 333 с.

22. Шкарбан Ф.В. Методика обучения основам объектно-ориентированного программирования бакалавров прикладной информатики с использованием визуальных учебных сред // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Волгоград, 2018. – 28 с.

23. Акамова Н.В. Обучение математике студентов средних специальных учебных заведений с использованием информационных технологий // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Саранск, 2011. – 254 с.

24. Данилькевич А.В. Методика обучения мультимедийным технологиям будущих специалистов эстетико-гуманитарного направления в среднем профессиональном образовании // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Волгоград, 2013. – 175 с.

25. Дробышевский А.А. Организация самостоятельной работы студентов с применением компьютерных технологий обучения // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Саратов, 2013. – 24 с.

26. Кулешова Г.М. Содержание и организация индивидуальной деятельности учащихся в дистанционном обучении // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – М., 2009. – 240 с.

27. Adriana L.F. A dinâmica de relacionamento entre as Tecnologias da Informação e o Desempenho Organizacional no contexto da indústria da hotelaria // Tese especialmente elaborada para obtenção do grau de Doutor em Ciências e Tecnologias da Informação. – Dezembro, 2017. – 273 p.

28. Ломоносова Н.В. Системасмешанного обучения в условиях информатизации высшего образования // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – М., 2018. – 28 с.

29. Лучанинов Д.В. Методика развития творческой информационной компетентности студентов в информатических дисциплинах // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Биробиджан, 2017. – 188 с.

30. Сорочинский М.А. Развитие информационной компетентности студентов дидактическими средствами электронной информационно-образовательной среды // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Якутск, 2019. – 191с.

31. Adriano Del Pino Lino. Labder - laboratório virtual de ensinoaprendizagem de banco de dados relacionais: uma abordagem de avaliação automática de diagramas er e SQL. Maio de 2021. – 350 p.

32. Andrija Bernik. Uvođenje elemenata računalne igre u online poučavanje sadržaja informatičkih nastavnih predmeta // Doktorski rad. – Varaždin, 2017. – 416 p.

33. Куклев В.А. Становление системы мобильного обучения в открытом дистанционном образовании // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Ульяновск, 2010. – 46 с.

34. Капина А.А. Формирование готовности будущих учителей к использованию мобильных технологий в процессе обучения в магистратуре // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Грозный, 2022. – 26 с.

35. Авраменко А.П. Модель интеграции мобильных технологий в преподавание иностранных языков для развития устных видов речевой деятельности (английский язык) // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2013. – 23 с.

36. Григорьева М.А. Деятельностный подход в обучении школьников информатике с использованием мобильных компьютерных систем // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2011. – 23 с.

37. Сакибаев С.Р. Формирование профессиональных компетенций будущих учителей математики с использованием мобильных приложений // Диссертация на соискание доктора философии (PhD). – Республика Казахстан Талдыкорган, 2023. – 134 с.

38. Kuimova, M. V., Anastasiya, K. and Alexey, T. E-learning as a means to improve the quality of higher education learning to undergraduate midwifery students from a practice based perspective // Nurse Education in Practice. – 2016. – №14(2). – P. 35-10

39. Al-Takhyneh, B. Attitudes towards Using Mobile Applications in Teaching Mathematics in Open Learning Systems // International Journal of E-Learning & Distance Educatio. – 2018. – №33(1). – P.180-192.

40. Fabian, K., Topping, K. J., & Barron, I. G. Using mobile technologies for mathematics: Effects on student attitudes and achievement // Educational Technology Research and Development . 2018 . – № 66(5). – P.1119-1139.

Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

**AXBOROT TIZIMLARI YORDAMIDA TALABALAR BILIMINI
PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA QILISH MASALALAR**

Yuldoshev Ismoil Abriyevich

Qarshi davlat universiteti, dotsent.

Annotatsiya: Maqolada talabalarning axborot tizimlari yordamida talabalar bilimini pedagogik diagnostika qilishda onlayn platformalardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan.

Tayanch soʻzlar: axborot va raqamli texnologiyalar, pedagogik diagnostika, kompetensiya, ta’lim dasturlari, malaka darajasini baholash, axborot yuklariga moslashish qobiliyati, kommunikativ koʻnikma, ekspert tizimlari va avtomatlashtirilgan tizimlar.

**ВОПРОСЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ ЗНАНИЙ
УЧАЩИХСЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ**

Юлдошев Исмаил Абриевич

Доцент Каршинского государственного университета

Аннотация. В статье освещены вопросы эффективного использования онлайн-платформ в педагогической диагностике знаний студентов с помощью информационных систем студентов.

Ключевые слова: информационные и цифровые технологии, педагогическая диагностика, компетентность, образовательные программы, оценка уровня компетентности, способность адаптироваться к информационным нагрузкам, коммуникативные навыки, экспертные системы и автоматизированные системы.

**ISSUES OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS OF STUDENT KNOWLEDGE
USING INFORMATION SYSTEMS**

Yuldoshev Ismail

Associate Professor of Karshi State University

Abstract. The article covers the issues of effective use of online platforms in pedagogical diagnosis of students’ knowledge with the help of students’ information systems.

Key words: information and digital technologies, pedagogical diagnostics, competence, educational programs, evaluation of the level of competence, ability to adapt to information loads, communicative skills, expert systems and automated systems.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va talabalar bilimini pedagogik diagnostika qilishga e’tibor qaratilmoqda, ammo shu bilan birga ta’lim tizimining sifatini boshqarish, pedagogik diagnostikaning mazmuni, funksiyalari va xususiyatlari tushunchalari aniqlashtirishni talab qiladi. Odatda pedagogik diagnostika va ta’lim sifatini baholash tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ikkita tushuncha hisoblanadi.

Har bir o‘qituvchi tegishli ta’lim yo‘nalishining malaka talablarida keltirilgan kompetensiyalar asosida talabalarning ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish natijalari va samaradorlik diagnostikasi qilish orqali ta’lim sifatini baholanishga e’tibor qaratish zarur.

Buning uchun ta’lim sifatini va talabaning shaxsiyatidagi o‘zgarishlarni baholashning turli usullarga e’tibor berish muhim. O‘qituvchi har bir talabaning individual yutuqlarini kuzatishingiz, shuningdek, o‘quv dasturining o‘zgarish darajasini va butun guruhning ta’lim sifatini baholashingiz mumkin. Pedagogik diagnostika va ta’lim sifatini baholashning universal usullari, shuningdek alohida yo‘nalishlarga xos bo‘lgan usullari mavjud.

Pedagogik diagnostikaning o‘zi o‘qitishni takomillashtirish va ta’lim xodimlarining bilim darajasini oshirish uchun juda muhimdir. Test ko‘rinishidagi diagnostika talabalar bilimining kasbiy darajasini aniqlash imkonini beradi va ma’lumotlar bazasini javob berish qiyin bo‘lgan savollar bilan takomillashtiradi, optimal yechimlarni topish uchun asos yaratadi.

Respublika oliy ta’lim muassasalarida pedagogik diagnostika dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish nafaqat bo‘lajak yuqori malakali mutaxassislarining fundamental bazaviy tayyorgarligi bo‘libgina qolmay, balki barcha profildagi zamonaviy kadrlarning axborot-texnologik tayyorgarligi uchun sharoit yaratadi, xususan:

- bo‘lajak mutaxassislarining malaka darajasini baholash;
- ishlab chiqarish vositalarini yangilash natijasida yuzaga keladigan axborot yuklariga moslashish qobiliyati, shuningdek, kommunikativ ko‘nikmalar va jamoada ishlash qobiliyatida ifodalangan yuqori moslashuvchanlikni tashxislash;

- tayyorlash bosqichida mutaxassislarni tayyorlashdagi kamchiliklarni tuzatish;
- o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyati darajasini va muntazam ravishda malaka oshirish zarurligini baholash va boshqalar.

Pedagogik diagnostika dasturiy ta’minoti bo‘lajak mutaxassislarning tayyorgarlik darajasini baholash, ularning axborot va media madaniyatini rivojlantirish, bu boradagi tuzatish ishlariga xizmat qila oladigan tarzda yaratilgan.

Mutaxassisning talab qilinadigan axborot madaniyatini ta’minlash pedagogik kadrlarning ma’lum darajadagi kasbiy tayyorgarligini, ushbu texnologiyalarning potensial imkoniyatlari bilan tanishishini va bu imkoniyatlardan o‘z amaliy va ilmiy faoliyatida foydalana bilishni talab qiladi. Binobarin, zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalari ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalari va faol o‘qitishning turli shakl va usullarini keng joriy etish bilan uzviy bog‘liqdir.

Kompyuter texnologiyalari bizga sifatli pedagogik diagnostikani yangi bosqichda tashkil etish imkoniyatini beradi. Ekspert tizimlari sifatida malakaga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlar sinov natijalarini tahlil qilish va uning keng qamrovli algoritmlarini taqdim etishga qodir. Kompyuterlardan foydalangan holda test o‘tkazish o‘qituvchiga guruh talabalarining bilim va ko‘nikmalarining qisqacha tahlil etish va ushbu ma’lumotlardan o‘qitish usullarini tanlashda foydalanish mumkin. Bunday algoritmlarni o‘rganish ilmiy ishning keng sohasidir. Shuning uchun bizning ishimizning maqsadi quyidagi talablarni qondiradigan pedagogik diagnostika usullarini ishlab chiqishdir:

test jarayonida imtihon topshiruvchining intellektual faoliyatining turli shakllari jalb qilinadi;

pedagogik diagnostikaning avtomatlashtirilgan tizimi imtihon topshiruvchilarning keng farqlarida uning diagnostika qobiliyatini ta’minlaydi;

test natijalarini qayta ishlash imtihon oluvchi va o‘qituvchi uchun o‘quv jarayonini to‘g‘irlash uchun maksimal ma’lumot beradi.

Adabiyotlarning tahlili. Olib borilayotgan tadqiqotlarning ijtimoiy-pedagogik dolzarbligi davlat hujjatlarida belgilangan ta’lim sifati ustidan nazoratni ta’minlash

talabi va o‘quv jarayoni parametrlarini monitoring qilishning mavjud amaliyoti o‘rtasidagi qarama-qarshilik bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda ta’limni demokratlashtirish uning mazmuni va tuzilishini, ta’lim texnologiyalarini o‘zgartirishga olib keldi. Ana shunday o‘zgarishlardan biri ta’lim tizimining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan. Talabalarning individual xususiyatlariga moslashtirilgan moslashuvchan pedagogik texnologiyalar pedagogik diagnostikani o‘z ichiga oladi, bunda biz pedagogik jarayonlarni ushbu jarayonlarni samarali boshqarishni ta’minlash uchun tan olingan algoritmdan foydalangan holda mos yozuvlar namunalari bilan taqqoslash asosida o‘rganishga qaratilgan kognitiv va transformativ faoliyatni nazarda tutamiz. Pedagogikaning ushbu faoliyatni amalga oshirishning qonuniyatlari va tamoyillari, usullari va vositalarini o‘rganadigan nazariy va amaliy sohasi bu o‘quv natijalarini baholash, tuzatish choralari ko‘rish va diagnostikani ishlab chiqish uchun mo‘ljallangan [2].

Ta’lim jarayonini axborotlashtirish sharoitida ta’lim yutuqlarini an’anaviy pedagogik diagnostika qilish masalalari bo‘yicha rus olimi YE.A. Suxoviyenko ilmiy izlanishlar olib borgan [3]. U o‘zining doktorlik dissertatsiya ishida ta’limni axborotlashtirish sharoitida pedagogik diagnostikaning uslubiy, nazariy va texnologik asoslarini tadqiq etgan.

Freiburg ta’lim universiteti olimlari A.Rieu, T.Leuders va K.Loibllarning “Teachers’ diagnostic judgments on tasks as information processing - The role of pedagogical content knowledge for task diagnosis” nomli ilmiy maqolasida talabalar uchun berilgan vazifadagi qiyinchiliklarni baholashda o‘qituvchilar o‘zlarining mavzuga xos pedagogik tarkibiy bilimlarini qo‘llash orqali vazifaning tegishli xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni idrok etishi va vazifalar bo‘yicha diagnostik xulosalar asosida jarayonlar haqidagi taxminlar modellashtirilgan va tizimli ravishda o‘rganilgan [5].

Xarkov milliy pedagogika universiteti olimlari L.Bilousova, O.Kolgatin va L.Kolgatinalarning “Pedagogical diagnostics with use of computer technologies” nomli ilmiy maqolasida avtomatlashtirilgan pedagogik diagnostika texnologiyasi

tahlil etilib, pedagogik diagnostika maqsadiga yo‘naltirilgan sinov strategiyasi va Ukraina maktablarini baholash standartlariga mos keladigan baholash algoritmi taklif etilgan. Avtomatlashtirilgan pedagogik test uchun "Expert 3.05" dasturi ishlab chiqilgan. Test topshiriqlari ma’lumotlar bazasini boshqarish usullari taklif etilgan.

Tadqiqotchi H.A.Rahmatovanning “Pedagogical Diagnostics in the Educational Process” nomli ilmiy maqolasida o‘qituvchining turli xil pedagogik vaziyatlarda mavjud muammolarni hech qanday qiyinchiliksiz hal qilishi uning yuqori darajadagi kasbiy mahoratiga bog‘liq ekanligi, inson resurslariga bo‘lgan ehtiyoj o‘sib borayotgan va mehnat bozorida kuchli raqobat mavjud bo‘lgan hozirgi sharoitda o‘qituvchining kasbiy malakasi ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshirishga xizmat qilishi e’tirof etilgan.

Muallif L.B.Sharkashovanning “Pedagogicheskaya diagnostika obrazovatel’nogo protsessa” nomli uslubiy qo‘llanmasida o‘quvchilarning qo‘shimcha ta’limida o‘quv jarayonini pedagogik tashxislashning zamonaviy talablari bilan tanishtirilgan, qo‘shimcha ta’lim jarayonida o‘qituvchilar ijodiy jamoada diagnostika faoliyatini qurishda yordam berishi bo‘yicha tavsiya berilgan.


Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik jarayonning samaradorligini aniqlash bo‘yicha axborot tizimlarini tanlash va foydalanishda alohida e’tibor qilishi lozim. Talabalar bilimini aniqlash va tahlil etishda onlayn axborot tizimi orqali o‘zlashtirish monitoringini tashkil etish uchun avvalo, zamonaviy ta’lim tizimida o‘qitishning sifatini tashxis qilishga, ya’ni uning holatini tashxislamay turib, undagi jarayonlarni samarali boshqarish va ta’limda ma’lum bir maqsadga erishishning iloji yo‘qligi hech kimda shubha tug‘dirmaydi. Talabalarning yakunlovchi bilim va malakalarini ta’lim jarayonida turli mezonlar hamda yondashuvlarga tayanib aniqlash, bu jarayonlarda axborot texnologiyalarini qo‘llash natijasida ularning didaktik talablarga mosligini haqiqiylikini nazorat qilish mumkin. Unda pedagogik tashxis talabalar bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllanish darajasini aniqlashni, nazorat qilishni, baholashni, yig‘ish va statistik ma’lumotlarning tahlili hamda kelgusida bu jarayon rivojini bashorat qilishni o‘z ichiga oladi [6].

Odatda, pedagogik jarayonning maqsadlari sifatida belgilagan haqiqiy natijalarning kutilgan natijalarga muvofiqligi o‘lchovi sifatida qaraladi. Shuning uchun o‘qituvchi talabalarining bilimini pedagogik diagnostika qilishda asosiy jihatlarga e’tibor berishi kerak.

Talabalarni tayyorlash sifatiga ilmiy yondashish bilimlarni o‘zlashtirishning bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash kabi darajalarini nazarda tutadi, bu birinchi qarashda oliy o‘quv yurti talabalarining kasbiy darajasi talablariga to‘liq mos keladi, modomiki, ishlab chiqish, amalga oshirish va nazorat qilish – kasbiy faoliyat, texnologik va uslubiy qarorlar asosida yotuvchi jarayonlarni tahlil qilish va sintez qilish ko‘nikmalarisiz mumkin emas [7].

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda kompyuterda bilimlarni tekshirishni tashkil qilishning keng ko‘lamli usullari va texnologiyalarini taqdim etadi. Onlayn testni juda tez, eng dolzarb va talabga ega bo‘lganda tashkil qilish mumkin.

Shularni inobatga olgan holda talabalar bilimini diagnostika qilish bo‘yicha bir qancha tizimlar mavjud bo‘lib, testlarni yaratish uchun turli xil funksiyalarga ega eng bepul platformalardan biri bu “Online Test Pad”dir (1-rasm).



1-rasm. “Online Test Pad” tizimi

Bu o‘qituvchi o‘rganilayotgan material bo‘yicha bilimlarni tekshirish va monitoring qilish uchun raqamli ta’lim resurslarini yaratishi mumkin bo‘lgan universal konstruktorlarga tegishli:

- testlar;
- krossvordlar;
- skanerlar;
- so‘rovlar;
- mantiqiy o‘yinlar;
- dialoglar

“Online Test Pad” platforma xizmatidan foydalangan holda yaratilgan resurslar o‘qituvchiga nafaqat talabalar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini tekshirishga yordam beradi, balki ularga ma’lum bir mavzuga yaxshiroq tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatini beradi.

Xizmat har qanday murakkablikdagi onlayn testlarni yaratishga imkon beradi, shuningdek, tayyor onlayn testlar ma’lumotlar bazasini o‘z ichiga oladi.

Tizimning test yaratuvchi xizmat 14 turdagi savollar uchun variantlarni taqdim etadi, jumladan: ketma-ketlik, bo‘sh joylarni to‘ldirish, ketma-ket yo‘q qilish, diktant, bitta yoki ko‘p tanlovli javoblar, raqamlar yoki matn kiritish, fayllarni qo‘shish va hokazo. Bundan tashqari, savolni kiritish mumkin. Tasvir savol sifatida va javob variantlarida, bu sizga o‘quv vazifalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Sinovlarni moslashtirish va ketma-ketlashtirish uchun sudrab tashlash vositasidan foydalanishingiz mumkin.

Har bir to‘ldirilgan anketa uchun o‘qituvchi javoblar statistikasini olishi mumkin, u har bir natijani, javoblar statistikasini va to‘plangan ballarni ko‘rishi mumkin, ularni Excel formatida yuklab olish mumkin.


Platformada ta’lim testini yaratish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu bosqichlar boshqa onlayn platformalarda test topshiriqlarini yaratish uchun mos keladi [1].

Mazkur dasturiy platforma yordamida talabalar bilimini diagnostika qilish “Tarmoq texnologiyalari” fani misolida ko‘rish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Tarmoq texnologiyalari fanidan test savollari

Ushbu “Tarmoq texnologiyalari” fanidan tayyorlangan test natijalarini ko‘rish uchun o‘qituvchi "Statistika" bo‘limiga o‘tishi kerak. U yerda test yakunlari soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi. Statistik ma’lumotlar har bir savol javoblar bo‘yicha saqlanadi. Barcha savollarga berilgan javoblarning to‘g‘riligi jadvali taqdim etilgan bo‘lib, unda savolga to‘g‘ri, qisman to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob bergan respondentlarning foizi ko‘rsatilgan. Natijalar bo‘yicha statistik ma’lumotlar, natijalar jadvali va umumiy ma’lumotlar taqdim etiladi (3-rasm).



3-rasm. O‘tkazilgan test natijalari

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishda uning har bir bo‘g‘inini kompleks diagnostika tizimini tashkil qilmasdan mumkin emas. Talabalarni fanlarni o‘rganish darajasini yanada takomillashtirilgan diagnostika yangi axborot texnologiyalari yordamida amalga oshirilishi mumkin, ulardan foydalanish pedagogik diagnostika tizimini yangi, sifat jihatidan boshqa darajaga o‘tkazishni belgilaydi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarga fanlarni o‘rgatishda ularning kasbiy yo‘naltirilgan kompetensiyalari shakllantirish darajasini pedagogik diagnostika qilish imkonini beruvchi turli ko‘rinishdagi testlar yaxshi samara berdi.

Shunday qilib, Online Test Pad platformasida test yaratish qiyin emas. Bundan tashqari, uni ishlatish juda ko‘p afzalliklarga ega:

yaratilgan testlarni ommaviy ravishda e’lon qilish mumkin emas, lekin cheklangan miqdordagi foydalanuvchilar uchun platformaning “ichida” foydalanish mumkin;

testdan o‘tish statistikasini ko‘rish oson va sodda;

test natijalari bilan ma’lumotlar Excel ga yuklanadi;

elektron shakldagi test boshqa formatga eksport qilinishi mumkin, shundan so‘ng uni chop etish mumkin;

“vidjet” yaratib, uni o‘z sahifangiz yoki veb-saytingizga joylashtirishingiz mumkin;

test topshirish vaqtini cheklash;

testdan o‘tishga urinishlar sonini cheklash;

savollarni almashtiring, shunda hammasi to‘g‘ri hisoblab chiqiladi;

o‘qituvchiga kerak bo‘lganda ball qo‘yish, javoblardagi noaniqliklar uchun ballarni kamaytirish;

sertifikat olish imkoniyati;

fan va mavzuga qarab test uslubini tanlash;

tayyor testlardan foydalaning va umumiy foydalanishni tashkil qiling.

Shunday qilib, bulutga asoslangan Onlayn Test Pad tizimi o‘qituvchilar tomonidan ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni sinovdan o‘tkazish, bilim darajasi bo‘yicha ekspress testlar, testlar va testlarni o‘tkazish uchun foydalanishi mumkin

Adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.А., Зайнитдинова М.А. Совершенствование качества образования в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров // Научный результат. Педагогика и психология образования. – 2018. – Т. 4. – № 3. – С. 3–11. – URL: <http://rrpedagogy.ru/journal/annotation/1466/> (дата обращения: 06.09.2019)

2. Yuldoshev I., Ergasheva U. Diagnosis in determining the intellectual and creative abilities of students in the environment of digital technologies //Central asian journal of education and computer sciences (cajecs). – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 66-72.

3. Суховиенко Е. А. Педагогическая диагностика успешности обучения учащихся в контексте информатизации образования: Автореф. дисс. ... док. пед. наук. – Екатеринбург – 2006. -46 с.

4. Andreas Rieu, Timo Leuders, Katharina Loibl, Teachers’ diagnostic judgments on tasks as information processing – The role of pedagogical content knowledge for task diagnosis, Teaching and Teacher Education, Volume 111, 2022, 103621, ISSN 0742-051X, <https://doi.org/10.1016/j.tate.2021.103621>. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0742051X21003462>)

5. Bilousova, L., Kolgatin, O., & Kolgatina, L.S. (2008). Pedagogical Diagnostics with Use of Computer Technologies. International Conference on Information and Communication Technologies in Education, Research, and Industrial Applications.

6. Джураева Р.Б. Талабаларни ўқитишда билим, малака ва кўникмаларини шакллантириш // О‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnal - Ф.:, 2022. – №3. – Б. 106-112.

7. Сабирова У.Ф., Аликариева А.Н. Математик усуллар ва моделлар олий таълим сифатини мониторинг қилиш воситаси сифатида // Ижтимоий тадқиқотлар журнали - Т.:, 2021. – №SI-1. – Б. 181-192.

8. Денякина Л.И. Педагогическая диагностика - движущая сила педагогического коллектива. - М. “Университет”. 2000 г.

9. Ваграменко Е.А. Информационные технологии и модернизация образования // Педагогическая информатика. 2000. - №2. — С.3-10.

10. Ванькова В.С. Творческие задания в обучении информатике студентов педагогического вуза / В.С. Ванькова, Ю.М. Мартынюк // Педагогическая информатика. №1. - 2005. - С.40-46.

11. Секой Л. Продуктивные процессы в обучении и мышлении. Кн.: Психология мышления. М., 2003.

12. Трайнев В.А. Информационные коммуникационные педагогические технологии. М.: Дашков и К, 2005. - 280 с.

Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

**TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI DARSLIKNING DIDAKTIK
IMKONIYATLARI**

Tursunov Mirolim Ahmadovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillari fanini o‘qitishda raqamli darsliklarni imkoniyatlari tahlil qilindi. Raqamli darsliklarning pedagogik imkoniyatlari, ta’lim samaradorligini oshirishda foydalanish usullari, muammoli vaziyatlarni hal qilishda talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish hamda talabalar bilan individual ishlash imkoniyatlari tahlil qilinadi..

Tayanch so‘zlar: zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamlashtirish, mualliflik dasturlari, mustaqil ta’lim, kognitiv-kreativ, raqamli darsliklar, germenevtik, ta’lim saytlari

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЦИФРОВОГО УЧЕБНИКА В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

Турсунов Миролим Ахмадович

Каршинский инженерно-экономический институт, доцент

Аннотация: В данной статье проанализированы возможности цифровых учебников при обучении объектно-ориентированным языкам программирования. Анализируются педагогические возможности цифровых учебников, способы их использования для повышения эффективности обучения, развития способностей учащихся к решению проблемных ситуаций, возможности индивидуальной работы со студентами.

Ключевые слова: современные информационные технологии, цифровизация, авторские программы, самостоятельное образование, познавательно-творческие, цифровые учебники, герменевтика, образовательные сайты.

**DIDACTIC POSSIBILITIES OF DIGITAL TEXTBOOK IN THE
EDUCATIONAL PROCESS**

Tursunov Mirolim

Karshi Institute of Engineering and Economics, associate professor

Abstract: This article analyzes the capabilities of digital textbooks in teaching object-oriented programming languages. The pedagogical capabilities of digital textbooks are analyzed, ways of using them to increase the effectiveness of learning, develop students' abilities to solve problem situations, and the possibility of individual work with students.

Keywords: modern information technologies, digitalization, proprietary programs, independent education, cognitive and creative, digital textbooks, hermeneutics, educational sites.

Kirish. Respublikamizda ham siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Yangi o‘tib kelayotgan avlodning kompyuter savodxonligini rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Haqiqatan ham, Prezidentimiz va Hukumatimiz tomonidan ta’lim jarayonini raqamlashtirish sohasida olib borilayotgan sa’y-harakatlarga muvofiq har bir fanni o‘qitishda raqamli ta’lim texnologiyalarni o‘quv mashg‘ulotiga tadbiiq qilishning asosiy yo‘li ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qilayotgan eskicha o‘qitish tizimini bosqichma-bosqich yangilashdan iboratdir.

Jamiyatda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish rivojlanib borayotgan davrda ta’lim berish jarayonida ham shunday metodikani yaratish kerakki, u takrorlanuvchan, turg‘un bo‘lishi va ta’lim samaradorligini oshirishi, sifatini kafolatlashi kabi omillarini inobatga olish pedagoglar oldidagi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarga bosqichma-bosqich o‘tish sharoitida ta’lim tizimida ham boshqa sohalarda qatori raqamli ta’lim texnologiyalarni hamda raqamli dasrlklarni keng joriy etilishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ilmfan, zamonaviy texnika va texnologiyalarning imkoniyatlari ularning ishlab chiqarishdagi ijobiy o‘zgarishlari, ushbu sohalarda qilinayotgan islohotlar to‘g‘risida talabalarga tez, sifatli shaklda yetkazib berish bilan bir qatorda o‘tiladigan fanlardan nazariy va amaliy bilimlarni to‘liq va sifatli yetkazib berishni zamonning o‘zi talab etilmoqda. Ushbu vazifani birinchi o‘rinda, nazariy hamda amaliy ma’lumotlarni o‘zlashtirib, ko‘nikmani malakaga aylantirishning optimal varianti bo‘lgan raqamli darsliklar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan hamda internet tarmog‘laridan foydalanish hamda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini talabalarda rivojlantirish zarurdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, Respublikamizda ta’lim tizimida qilinayotgan islohotlarning asosiy maqsadi ta’lim tizimining uzluksizligini ta’minlash va ta’lim sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarning didaktikasining turli yo‘nalishlari bo‘yicha pedagoglarning innovatsion faoliyati ta’limni raqamlashtirish

va aralash ta’limni tashkil etish bo‘yicha yangi raqamli darsliklarni yaratish uchun nazariy va empirik asoslarni qurish zaruriyati sezilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli darsliklarning me’yoriy nazariy va amaliy bilimlarning asosiy manbalaridan bir ekanligi hech kimga sir emas, ularni yaratish muammosi pedagogik nazariya va amaliyotda doimo markaziy masalalardan biri bo‘lib kelgan. Bunda asosan ularning bilimlarni oshirish uchun emas, balki ko‘proq kognitiv-kreativ salohiyat tushunchasi bilan tavsiflanadigan tahsil oluvchilarning intellektual rivojlanish jarayonini rag‘batlantirish imkoniyatlarini samarali ta’minlaydigan xususiyatlar baholangan. Mazkur muammoning turli jihatlari bir qator olimlarning nazariy va amaliyotga yo‘naltirilgan tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan: V.P. Bospalko, A.A. Verbitskiy, Y.I. Dik, L.S. Xijnyakova, V.K. Dyachenko, I.Y. Lerner, K.D. Ushinskiy, G.N. Aleksandrov, Dj.Dyui, B.Blum.

Raqamli darslikning o‘quv bloklari va texnologiyalari bilish faoliyatining har xil turlarini qamrab oladi: tahliliy, tizimli, ijodiy, tadqiqot, aloqa, nazorat, modellashtirish, o‘yinlarni YE.A.Pichkurenko va A.I. Arxipovalar o‘z tadqiqotlarida keltirgan.

Modifikatsiyalangan tuzilmaga ega raqamli darsliklarni yaratishga yangicha yondashuv zamonaviy axborot texnologiyalarining mualliflik dasturlari yordamida, raqamli darslikning matn, video, audio, animatsiya va interfaol shakllarida taqdim etilgan nazariy, amaliy ma’lumotlarni ishlab chiqish va mustaqil ta’lim raqamli texnologiyalariga asoslanadi V.G.Razumovskiyning ishlarida o‘z aksini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida matematika informatika fanlarning o‘qitish va o‘rganishning nazariy metodik asoslari V.A.Bolotyuk, E.A.Bunimovich, V.D.Selyutinlar ishlari. Zamonaviy yondashuvlar va axborot texnologiyalarini o‘qitish va o‘rganish jarayoniga joriy etish I.V.Sulina, M.A.Suvorova, L.A.Terexova, S.V.Sherbatix va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Ta’lim jarayonini loyihalash masalalari, uning nazariy va amaliy jihatlari V.P.Bospalko, T.K.Smikovskaya, V.M.Monaxov va boshqalar, respublikamizda

B.Ziyomuhamedov, M.Tojiev, B.Sh.Usmonov, Q.Ishmatov, O‘.Q.Tolipov, D.Fayzullaeva va boshqalarning ilmiy ishlarida asoslab berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. “Raqamli darslikning kognitiv-kreativ salohiyati” tushunchasining didaktik talqini ularning innovatsion texnologiyalar yordamida kognitiv operatsiyalarni bajarish qobiliyatini ta’minlaydigan xususiyatini aks ettiradi. Talabalarning kognitiv-kreativ salohiyati uning bilish va ijodiy qobiliyatlari sifatida qaraladi. Bunda ijodiy qobiliyatlari rivojlanishi mustaqil ish va refleksiv faoliyat shakllarining ustunligida raqamli darslikning o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Yuqori kognitiv-kreativ salohiyatga ega raqamli darslikning innovatsion modelini yaratish konsepsiyasi A.I.Arkipova tomonidan 1998 yilda asoslab berilgan, elektron ilova esa yangi texnologiyalarning tarmoq Internet-konstruktorini R.I. Zolotaryov taqdim etadi.

Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, pedagoglarni faoliyatni raqamlashtirish jarayoniga kasbiy tayyorlash uchun sharoit yaratadi va kreativ ta’lim uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik amaliyotda qo‘llanilayotgan raqamli darsliklar tahlili, shuningdek, ularning mualliflari “Tayyor bilim” paradigmasiga amal qilishini ko‘rsatadi, bu esa darsliklarda ilmiy nazariyalarni taqdim etishning dogmatik uslubining hukmronligiga olib keldi. Bundan tashqari, “Tayyor bilim” paradigmasini amalga oshirish mohiyatan o‘qituvchining funksiyasini o‘quv axborotini uzatishgacha qisqartirilishiga olib keladi, ya’ni u innovatsion ta’lim yaratuvchisi rolini yo‘qotib, meyoriy bilimlarning ijrochisiga aylanadi. Ushbu omilni bartaraf etish darslikni yaratishda ham, tegishli elektron ilovani ishlab chiqishda ham germevntik yondashuvni dolzarblashtiradi. Raqamli darslikning o‘quv bloklari va texnologiyalari bilish faoliyatining har xil turlarini qamrab oladi. Bularga tahliliy, tizimli, ijodiy, tadqiqot, aloqa, nazorat, modellashtirish, o‘yinlar kiradi.

Tahlil va natijalar Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tadqiqot predmeti raqamli darslikning o‘quv materiallarini tanlash va yaratish orqali talabalarning nazariy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlanishini individual ta’lim berish uchun imkoniyat yaratish maqsadida raqamli darslikning kognitiv-kreativ salohiyati

konsepsiyasini qurish hamda uning modelini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu konsepsiyani asoslash bir necha bosqichlarni o‘z ichiga olib, ularning har bir funksiyasi ma’lum muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, ularning yechimlari keyinchalik yaxlit tuzilmaga birlashtiriladi. Quyida raqamli darsliklarni konsepsiyasini yaratish bosqichlari ketma-ketligiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

- germenevtik, tizimli va madaniy-tarixiy yondashuvlarni o‘z ichiga olgan konsepsiyaning metodologik bazisini asoslash;

- o‘qitishning maqsadli yo‘nalishlari tarkibini muayyan ta’lim modeli yordamida aniqlash, masalan, B.Blum modelida o‘quv maqsadlari ko‘zda tutilgan: tushunish, yodlash, qo‘llash, umumlashtirish, tahlil qilish, sintez qilish, baholash;

- maqsadli yo‘nalishlarning har biriga mos keladigan kognitiv operatsiya (tizimlashtirish, qoida tuzish, ular orasidagi qonuniyatni aniqlash, umumiy jihatni topish, xususiyatlarni aniqlash, birlashtirish, guruhlash, algoritm yaratish)larni aniqlash;

- aralash ta’lim tamoyillaridan biri sifatida har bir talabaning shaxsiy intellektual salohiyatini rivojlanishiga yo‘naltirilgan kognitiv imkoniyatlarga ega raqamli darslikning didaktik materiallarini har bir talaba uchun individual tanlashni funksiyalarini tashkil etish.

Binobarin, o‘quv jarayoni davomida raqamli darslikning didaktik va elektron ta’minotidan har bir talabaning intellektual rivojlanishini hisobga olgan holda, ular uchun doimiy monitoringni ta’minlanish, ularning harakat traektoriyasini nazorat qilish lozim. Shuning uchun raqamli darsliklar fan mazmuni, nazariy va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish apparati bo‘lishi kerak, fanning o‘ziga xos xususiyatlari kelib chiqqan holda fanning mohiyatini to‘liq ochib berishga qaratilgan kognitiv funksiyalar majmuasini o‘z ichiga olishi kerak. Belgilangan konsepsiyani amalga oshirish har bir talabaning optimal va individual rivojlanishi uchun imkoniyat yaratib, ta’lim vositalarini yaratish muammosini hal qilishda ilmiy asoslangan yondashuv bilan, raqamli darslikdan foydalanishni esa individual yo‘naltirilgan yondashuv bilan almashtiriladi. Shu sababli yangi raqamli darslikning tuzilmasi

moslashuvchan bo‘lishi, elektron ilova mavjudligi tufayli doimiy yangilanib turishi kerak.

Bunda avvalgi va o‘zini yaxshi ko‘rsatgan pedagogik modellar inkor etilmaydi, balki ularni amaliy tadbiq etishning yangi imkoniyatlari asosida modernizatsiya qilinadi.

Raqamli darslikda axborotlarni taqdim etish shakllari:

- raqamli kitob shakli: elektron o‘quv paragraflari, o‘rgatuvchi bloklar, mashqlar, o‘quv o‘yinlari, test tizimlari, amaliy dasturlar va kontentni modifikatsiyalash algoritmlari.

- elektron shakl: nazariy ma’lumotlar fayllari, interfaol texnologiyalar va o‘yinlar, testlar, Internet tarmog‘idagi raqamli ta’lim saytlari.

- o‘qituvchi uchun. Raqamli darslikning interfaol modeli. “Ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish model” dasturi. “Fanni o‘rganish va pedagogik innovatsiyalarning virtual klaster” dasturi. Innovatsion kompyuter didaktikasi saytlari.

Yangi raqamli darslik tuzilmasi o‘ziga xos usullardan foydalanishni talab qiladi:


pedagogik kuzatish, so‘rov usullari va anketa, kognitiv modellashtirish, matematik statistika usullari, pedagogik tajriba va sinov, tarmoq ekspert baholash usuli.

Umumilmiy usullar bilan bir qatorda o‘ziga xos usullardan:

germenevtik doira usuli va bilimlarning tizimligi sifatini tahlil qilish usulidan ham foydalanish kerak.

Germenevtika (yunoncha hermeneutike), keng ma’noda talqin qilish va tushunish san’atidir degan ma’noni anglatadi. Germenevtika mavzu bo‘yicha taqdim etilayotgan materiallardagi murakkab jumlar va mavzuga oid terminlarni yoritish, izoh berish, boshqa tillarda keltirib o‘tilgan mavzuga oid iboralarini sharhlash talabalarga tushuntirish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu usuldan foydalanish raqamli darsliklarning ta’sir doirasini kengaytiradi. <https://selfedu.uz/> raqamli ta’lim

platformasida murakkab iboralarni hamda taqdim etilayotgan elektron matnlarda keltirib o'tilgan terminlarga berilgan sharhlardan namunalar keltirilgan (1-rasm). Raqamli ta'lim platformasida taqdim etilayotgan ma'lumotlarda mavzuga oid iboralarni va terminlar matndagi boshqa so'zlardan ajralib turibdi, kursorni shu so'z ustiga olib kelganda unga berilgan ta'rif va izohlar taqdim etiladi.



1-rasm: <https://selfedu.uz/> raqamli ta'lim platformasida mavzuga oid iboralarni va terminlarga berilgan sharhlar ko'rinishi.

Ulardan birinchisi ilmiy matnlarni o'rganish jarayonini alohida, mantiqiy ajralib turadigan qismlarni ajratish va keyinchalik ularning mazmunini ko'rib chiqish maqsadida ularni tuzilmasini tuzishga yo'naltiradi.

Ikkinchi usul tizim bilimlarining rekursiv modeliga qaratilgan.

Unda tizimlilikning birinchi darajasi o'rganilayotgan nazariyaning o'zagidan (modellar, tushunchalar, qonunlar) olingan bilim va savollarni o'z ichiga oladi;

ikkinchi daraja birinchi darajali bilimlarga ilmiy nazariyalarni qurishga olib keladigan dastlabki faktlar va shartlar haqidagi savollar va ma'lumotlar qo'shiladi;

uchinchi daraja ikkinchi darajali bilimlarga nazariyaning oqibatlarini haqidagi ma'lumotlar qo'shiladi;

to'rtinchi daraja o'rganilayotgan nazariyaning amaliy qo'llanilishi haqidagi bilimlarni qo'shib, barcha oldingi darajalardagi bilimlarni birlashtiradi.

Raqamli darslik modelni qo‘llash boshidanoq tizimlilik xususiyatiga xos bo‘lgan ilmiy nazariya tuzilmasiga mos bilimlarni shakllantirish uchun sharoit yaratadi. Model tuzilmasiga elektron ilova qo‘shimcha kiritishda tarmoq texnologiyalaridan foydalanish orqali uni yangi texnologiyalar bilan to‘ldirish imkoniyatlari mavjud. Biz talabaning “kognitiv-kreativ salohiyati” tushunchasi talabaning kognitiv va kreativ operatsiyalarni bajarish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Bunda kognitiv funksiyalarga o‘rganilayotgan ilmiy matnlarning mazmunini tushunishni ta’minlaydigan funksiyalar, kreativ funksiyalarga esa matnlarning shakl almashishi, o‘zgarishi (tuzilmasi, shakli, qismlarni joylashtirish ketma-ketligi o‘zgartiriladi).

Masalan, birinchi turdagi funksiyalarga biz matnni loyohalashtirish, kalit so‘zlarni aniqlash, matnga kiritilgan harakatlar algoritmini tuzish, matndan tushunchalarning ta’riflarini tashkil etuvchi so‘zlarni ajratib ko‘rsatishlarni kiritamiz.

Kreativ funksiyalar deb matnni jadvallarga, o‘ziga xos belgili shaklga, tuzilmaviy-mantiqiy sxemaga, piktogrammaga o‘zgartirish hamda matn axborotlarini yig‘ish boshqa funksiyalarni hisoblash mumkin.

Aqliy funksiyalarning bunday tabaqalashtirilishi an’anaviy va mualliflik kopmpyuter dasturlari asosida tegishli didaktik texnologiyalar va ularning interfaol versiyalarini ishlab chiqish imkoniyatlarini ta’minlaydi.

Raqamli darslikning talabalarga kognitiv va kreativ funksiyalarni bajarish imkoniyatini ta’minlashi xususiyatini aniqlash maqsadida “Raqamli darslikning kognitiv-kreativ salohiyati” tushunchasi raqamli darslikning uslubiy qismiga, ya’ni uning o‘quv bloklariga va elektron ilova texnologiyalariga kiritiladi. Masalan, agar o‘quv paragrafining mazmuni nazariyaning ilgari o‘rganilgan elementlariga asoslangan bo‘lsa, u holda “Takrorlash” o‘quv bloki shakllantiriladi. Agar nazariya qoidalari tajriba yo‘li bilan tasdiqlashni talab qilsa, u holda “Tajribalar va kuzatishlar” bloki shakllantiriladi. Bunda bloklar matnni taqdim etishning

deklarativ uslubidan foydalanmaydi, balki kognitiv-ijodiy funksiyalarni bajarish uchun ko‘rsatmalar beradi. Shunday qilib, raqamli darsliklar dual aloqani amalga oshiradi va talabning intellektual rivojlanishiga yo‘naltirish imkoniyatini beradi.

Xulosa va takliflar. Raqamli darslikning muhim jihati shundaki, raqamli darslikning innovatsion tuzilishi talabalarning intellektual rivojlanishi jarayoniga hamda nazariy va amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga, samarali ta’sir qiladi, ularning yangi didaktik va kompyuter texnologiyalarini o‘zlashtirishi jarayonini rag‘batlantiradi, shuningdek Obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillari fanini o‘qitish uchun yaxlit raqamli darsliklar yaratildi.

Adabiyotlar

1. Бегимкулов У.Ш. Научно-теоретические основы внедрения современных информационных технологий в педагогическую подготовку. – Т.: «Фанат», 2007. – 159 с.

2. Tursunov M.A. Uzluksiz ta’limda mustaqil ta’limning o‘rni va ahamiyati (“Axborot texnologiyalari” fanidan elektron ta’lim resurslarini yaratish misolida). Zamonaviy ta’lim № 2(99)-2021. 16-23-b.

3. Tursunov M.A. The importance of using electronic resources in education *Academicia: an international multidisciplinary research journal* V. 11 2021-y. 642-646 p

4. Abduqodirov A.A. va boshq. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. monografiya. - T.: O‘zbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi “FAN” nashriyoti, 2009. - 145 s

5. Абдуразаков М. М. К вопросу подготовки будущего педагога к профессиональной деятельности в современной информационно-коммуникационной образовательной среде. //Информатика и образование. - 2011. - № 9. - С. 83-85.

6. Shodiyev R. D., Ergashev N. G. “Analysis of existing risks and methods of combating them in cloud technologies”. *American Journal of Pedagogical and*

Educational Research, vol. 18, Nov. 2023, pp. 190-8,
<https://www.americanjournal.org/index.php/ajper/article/view/1522>.

7. Mallayev A.R., Xolbekov Sh.O., Ochilov Sh. (2023)/2-son Fizika, matematika va informatika ilmiy-uslubiy jurnal. 50-56 betlar. ta’limda shaffoflikni ta’minlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining roli.

8. Juk O.L. Междисциплинарная интеграция на основе принципов устойчивого развития как условие повышения качества профессиональной подготовки студентов. <https://elib.bsu.by/bitstream>.

9. Дидактические принципы профессионального обучения. <https://studfile.net/preview/4225234/page:21/>.

10. Elisabeth J. Spelt H. va boshqalar. Teaching and Learning in Interdisciplinary Higher Education: A Systematic Review. <https://link.springer.com/article/10.1007/s10648-009-9113-z#:~:text=Interdisciplinary%20higher%20education>.

11. Турсунов М.А. Analyse der funktionellen möglichkeiten von elementen aus elektronischen ressourcen bei der bildung unabhängige lernkompetenzen. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol.1 Issue 1.5 Pedagogical sciences. <http://berlinstudies.de/>

12. Rakhimov, O. D., Manzarov, Y. K., Qarshiyev, A. E., & Sulaymanova Sh, A. (2020). Классификация педагогических технологий и технология проблемного обучения. Проблемы современной науки и образования, 2(147), 59-62.

Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY O'QUV VOSITALARDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Dildora Anvarovna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarini axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish muammolari va yechimlariga oid olimlarning ishlarini tahlili berilgan. Shuningdek, mazkur maqolada texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarini axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda foydalaniladigan zamonaviy o'quv vositalari taklif etilgan. Shu bilan birga ushbu maqolada taklif etilgan zamonaviy o'quv vositalarni samaradorligini aniqlashga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borilgan hamda uning samaradorlik darajasi Styudent-Fisher kriteriyasidan foydalanib isbotlangan.

Tayanch so'zlar: zamonaviy o'quv vosita, bulutli texnologiya, virtual muhit, axborot-ta'lim muhiti, ta'lim portali, ta'limiy web-sayt, kompetentlik, mantiqiy, kreativ.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ ПРИ РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Абдуллаева Дилдора Анваровна

Навоийский государственный горно-технологический университет

Аннотация. В данной статье представлен анализ работ ученых по проблемам и решениям развития компетентности студентов технических вузов применительно к информационным технологиям. Также в данной статье предложены современные образовательные средства, используемые при развитии компетентности студентов технических вузов относительно информационных технологий. При этом были проведены педагогические эксперименты, направленные на определение эффективности предлагаемых в данной статье современных образовательных средств и доказан уровень их эффективности с помощью критерия Стьюдента-Фишера.

Ключевые слова: современный образовательный инструмент, облачные технологии, виртуальная среда, информационно-образовательная среда, образовательный портал, образовательный сайт, компетентность, логическое, креативное.

USE OF MODERN EDUCATIONAL TOOLS IN THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND TECHNOLOGICAL COMPETENCE OF TECHNICAL UNIVERSITY STUDENTS

Abdullayeva Dildora

Navoi State Mining and Technological University

Abstract: This article provides an analysis of the work of scientists on the problems and solutions of developing the competence of students of technical higher education institutions in relation to information technology. Also, in this article, modern educational tools used in the development of the competence of students of technical higher education institutions in relation to information technologies are proposed. At the same time, pedagogical experiments aimed at determining the effectiveness of the modern educational tools proposed in this article were conducted and its level of effectiveness was proven using the Student-Fisher criterion.

Key words: modern educational tool, cloud technology, virtual environment, information-educational environment, educational portal, educational website, competence, logical, creative.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalari (AT) vositalariga bo‘lgan ehtiyojlar doimiy ravishda oshib borishi tufayli talabalarni, shu jumladan texnika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy vositalardan foydalanish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Adabiyotlarning tahlili. Zamonaviy o‘qitish vositalarining texnika oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayoniga keng joriy etilishi, axborot texnologiyalariga oid fanlardan ta’lim oluvchilar oldiga muntazam mustaqil ravishda ta’lim olish vazifasini yuklamoqda. Ushbu o‘qitish vositalarini yaratish, ulardan ta’lim tizimida foydalanish yaxshi samara berishi shubhasiz.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitishda zamonaviy o‘qitish vositalaridan foydalanish talabning ko‘proq ichki imkoniyatlari, intellektual salohiyati, axborotni qabul qilish va o‘zlashtirish xususiyatlariga bevosita bog‘liq.

Bu borada, ya’ni oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda zamonaviy o‘quv vositalardan foydalanish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar U.M.Mirсанov [1], D.R.Ruziyeva [2], F.J.Toxirov [3], A.O.Norbekov [4], M.R.Fayziyeva [5], P.E.Nuraliyeva [6], N.A.Kayumova [7], Luís Filipe Leite Barbosa [8], L.M.Ivkina [9], Arturo Rojas López [10] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning bildirishicha, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, ta’limiy web-saytlar, virtual muhitlar, masofaviy o‘qitish tizimlari va bulutli xizmatlar zamonaviy o‘qitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida taklif etilayotgan o‘quv vositalaridan foydalanib bo‘lajak axborot texnologiyalari mutaxassislarini tayyorlash metodikasini ishlab chiqqan.

Jumladan, U.M.Mirсанov talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatida jamoa bo‘lib dasturlashni o‘rgatish g‘oyasini ilgari surgan. Uning tadqiqotida virtual muhitlardan foydalanib, jamoa bo‘lib dasturlashni o‘rgatish metodikasi keltirilgan [1].

D.R.Ruziyeva oliy ta’lim muassasalarida dasturlash tillarini o’qitishda zamonaviy o’qitish vositalaridan, ya’ni axborot-ta’lim muhitlarini foydalanishni taklif etgan. Shuningdek, pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining dasturlash tillariga oid fanlardan o’quv faoliyatini mustaqil tashkil etishga qaratilgan ochiq axborot-ta’lim muhitidan foydalanish metodikasini ishlab chiqqan [2]. F.J.Toxirovning tadqiqotida talabalarining dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirishda xorijiy ta’lim portallaridan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar berib o’tgan [3].

A.O.Norbekov pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak matematika va informatika o’qituvchilarini tayyorlashda kasbiy fan sifatida o’qitilib kelinayotgan “Kompyuter ta’minoti” fanini o’qitish samaradorligini oshirishda va talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etishda ochiq axborot-ta’lim muhiti zamonaviy o’quv vosita bo’lib xizmat qilishini nazariya va amaliy jihatdan asoslagan [4].

M.R.Fayziyevaning bildirishicha, o’quv jarayoniga moslashuvchi WEB tizimlar talabalarining web-dasturlashga oid ijodiy qobiliyatini oshirishda, kognitiv fikrlashini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik dasturiy vosita bo’lib xizmat qiladi. Uning tadqiqotida “Web-dasturlash” fanini o’qitishda o’quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimdan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan va samarali ekanligi pedagogik tajriba-sinov ishlari yordamida ilmiy asoslangan [5].

P.E.Nuraliyeva talabalarining raqamli texnologiyalariga oid kompetentligini shakllantirishda ta’lim platformasidan foydalanish metodikasini ishlab chiqqan. Uning ishida talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqilgan: mustaqil bilim olish; o’z-o’zini nazorat qilish; bilish faoliyatiga ta’sir etish omillarini relevant axborotlar ustida ishlash jarayoniga o’zaro integrativlik funksiyalarda joriy etish [6].

N.A.Kayumova bo’lajak informatika o’qituvchilarining kasbiy kompetentligi rivojlantirishda ta’limga oid web-saytlardan foydalanish metodikasini ishlab chiqqan. Shuningdek, bo’lajak informatika o’qituvchilarini masofaviy loyihalar tayyorlashga oid ijodiy qobiliyatini oshirish bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan [7].

Bu kabi tadqiqotlar Luís Filipe Leite Barbosa [8], Л.М.ИВКИНА [9], Arturo Rojas López [10]larning ishlarida ham keltirilgan bo‘lib, ularning bildirishicha, axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarni bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda bulutli xizmatlar, virtual muhitlar va Web 2 xizmatlar zamonaviy pedagogik dasturiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu olimlarning ishlarini tahlil etish asosida aytish mumkinki, texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy o‘quv vositalardan, jumladan global tarmoqning manzillarida joylashtirilgan axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, virtual muhit va bulutli xizmatlardan foydalanish lozim degan xulosaga kelindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Global tarmoqning interfaol imkoniyatlari axborot texnologiyalariga oid fanlarni ta’limining jamoaviy imkoniyatlarini ta’minlaydi. Tinglovchi onlayn aloqa muhiti orqali tengdoshlari bilan o‘quv loyihalarni jamoaviy bo‘lib bajarishi imkoniyati tug‘iladi. Shuningdek, turli geografik hududlarda interfaol muhokamalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Internet tarmog‘i orqali axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, virtual muhit va bulutli xizmatlardan foydalanib o‘qitishni boshqaruvchi professor-o‘qituvchiga talabalar bilan savol-javob va tushunmagan mavzularni tushuntirish uchun ma’lum vaqtni rejalashtirib, o‘sha vaqtda onlayn munozaralar olib borish imkoniyatlari vujudga keladi.

Bu borada, xorijiy davlatlarda global tarmoqning interfaol imkoniyatlari hamda masofaviy o‘qitish, axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, virtual muhit va bulutli xizmatlardan keng ko‘lamda foydalanilib kelinmoqda.

Xususan, bulutli xizmatlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan *Google Drive*, *Cloud Mail.ru*, *MediaFire*, *Yandex Disk*, *Microsoft OneDrive*, *Copy.com*, *Apple iCloud* kabi muhitlardan ta’lim jarayonida foydalanilib kelinmoqda. Ushbu bulutli xizmatlar foydalanuvchilar qurilmadan fayllarni saqlashi va yuklab olishi yoki professor-o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik dasturiy vositalarni global tarmoqda saqlash imkonini beradi. Bunda talabalar alohida fayl yoki papkaga kirish huquqini berishi mumkin. Kirish havola yoki elektron pochta xabarnomasi

orqali uzatiladi va kirish imkoniyatlarini ham sozlashingiz mumkin: ta’lim oluvchi, sharhlovchi yoki muharrir. Shuningdek, professor-o‘qitvchi-talaba yoki talaba-talaba integratsiyalashgan xizmatlaridan foydalangan holda bir-birlari bilan muammosiz muloqot qilishlari va o‘zaro aloqada bo‘lishlari mumkin. Shuningdek, saqlashda kerakli fayllarni qidirishni optimallashtirish uchun xodimlarga kompaniya ma’lumotlar majmuasi orasidan kerakli fayllarni topishga yordam beradigan aqlli qidiruv mavjud. Shu bilan birga ushbu xizmatlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- foydalanuvchi kompyuteridan ma’lumotlarni sinxronlashtirish va yuklab olingan fayllarni ko‘rish imkonini beradi. Foydalanuvchilar yoki hamkasblar tomonidan kiritilgan o‘zgarishlar avtomatik ravishda qurilmaga o‘tkaziladi;

- foydalanuvchi o‘z diskida kirgan uchinchi tomon fayllarini ko‘rishi imkoniyatini beradi;

- integratsiyalashgan hamkorlik vositalari: eslatmalar, hujjatlar, uchrashuvlar va boshqalar;

- maxfiy ma’lumotlar uchun fayllarni avtomatik ravishda skanerlaydi va ularga uchinchi tomon kirishini cheklash imkonini beradi;

- Internetga ulanmasdan kirish va fayllar hamda hujjatlar bilan ishlash.

Bu kabi xususiyatlar yordamida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarni mustaqil ta’limini samarali tashkil etish asosida, ularning axborot texnologiyalariga oid motivatsiyasini oshirishga, kreativ va kognitiv fikrlashini rivojlantirishda muhit texnologiya bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga bugungi kunda xorijiy davlatlarda bulutli texnologiyalarga asoslangan ta’lim platformalari yaratilgan bo‘lib, ulardan informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda va mustaqil ta’limini takomillashtirishda samarali foydalanilib kelinmoqda. Bularga misol sifatida *Microsoft, Google, A Cloud Guru, Canvas, Kahoot!, Edlio, Evernote, Coursera, Knowledge Matters, Blackboard, ClassFlow, Muzzy Lane, Nearpod, Go Noodle, Matific, Book Creator, Explain Everything, ArduSat, Wonder Workshop, Canva,*

Labster, Claroline, Dokeos, LAMS, OLAT, Sakai, Ilias, Atutor kabilarni keltirish mumkin.

Ushbu bulutli xizmatlarga asoslangan platformalar professor-o‘qituvchi va talabalar uchun turli didaktik vositalarni ishlab chiqishda hamda mashg‘ulotlarni loyihalashda zamonaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur platformalar yordamida turli darajadagi onlayn testlarini ishlab chiqish, krossvordlar yaratish, viktorinalar va aqliy o‘yinlarni o‘tkazish kabi imkoniyatlarga ega hisoblanadi. Bular yordamida texnika oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni samarali olib borishga, talabalar bilimni onlayn baholashga va axborot texnologiyalariga doir mantiqiy, algoritmik fikrlashini rivojlantirishga erishish imkonini beradi.

Bu kabi bulutli xizmatlarga asoslangan ta’lim platformalari bilan birga, informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitishda <http://www.edu.ru>, <http://window.edu.ru/>, <http://fcior.edu.ru> kabi axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari va ta’limga oid web-saytlardan foydalanish muhim sanaladi. Chunki ushbu muhitlarga joylashtirilgan elektron ta’lim resurslar, jumladan videodarslar yordamida kompyuterning amaliy va instrumental dasturlaridan foydalanishni, o‘rnatishni hamda turli loyihalar ishlab chiqishga doir ijodiy qobiliyatini oshirish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan muhitlar va bulutli xizmatlardan mashg‘ulotlarda samarali foydalanishda interaktiv doskalar muhim sanaladi. Shuning uchun texnika oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlardan mashg‘ulotlarni tashkil etishda <http://www.kvazar-micro.com>, <http://www.tds-prometey.ru>, <http://www.tds-prometey.ru>, <http://www.smartboard.ru/>, <http://www.hitachi-interactive.ru/>, <http://panaboard.ru/index.htm>, <http://walk-and-talk.ru/index.htm>, <http://www.nd.ru/>, <http://stratum.ac.ru/>, <http://www.ecoinvent.ru/> kabi interaktiv diskalardan foydalanish lozim. Tavsiya etilayotgan interaktiv doskalar yordamida professor-o‘qituvchi mashg‘ulotlarni samarali olib borishga, talabalarning

diqqatini jamlashga va kompyuter dasturlaridan foydalanish hamda turli loyihalarni ishlab chiqishni tushuntirishda zamonaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘rgatishda bir qancha vaqt va izlanishlar talab etiladi. Ya’ni auditoriyada o‘tilgan mashg‘ulotlar yordamida talabalarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda bir qancha qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu bois, talabalarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish lozim. Bu o‘z navbatida masofaviy o‘quv vositalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Shuning uchun informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlardan masofaviy ta’lim uchun <http://www.competentum.ru>, <http://www.prometeus.ru>, <http://moodle.org/>, <http://www.learnware.ru/>, <http://www.uniar.ru/dt-docent.html>, <http://dlc.miem.edu.ru/newsite.nsf/docs/works1.html>, <http://www.labview.ru>, <http://mastersolution.ru/> kabi qobiq dasturlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bular yordamida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni istalgan vaqtda va joyda ta’lim olishga hamda ularning kompyuterning amaliy va instrumental dasturlari yordamida mustaqil ravishda loyihalar ishlab chiqishga oid kreativ fikrlashini rivojlantiradi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan zamonaviy o‘quv vositalar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- masofaviy o‘qitish tizimlarni ishlab chiqish;
- onlayn baholash tizimlarni ishlab chiqish;
- elektron ta’lim resurslarni bulutli xizmatlarda saqlash va foydalanish;
- texnika oliy ta’lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlardan ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarni zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etish;
- talabalarning motivatsiyasini oshiradi hamda darslarni yuqori estetik va emotsional bosqichlarda olib chiqadi;
- differensial ta’lim olish imkonini yaratadi;

- informatika va axborot texnologiyalariga oid onlayn viktorinalar o‘tkazish;
- tarmoq orqali dasturlashga oid loyiha va guruh ishlarini muhokama qilish;
- virtual muhitlarda jamoa bo‘lib kompyuter texnologiyalari uchun turli dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish;
- mustaqil topshiriqlarni onlayn tartibda olish va topshiriqlarni jo‘natish;
- talabalar axborot texnologiyalariga doir o‘zini-o‘zi mustaqil baholash;
- o‘tkaziladigan oraliq va yakuniy nazoratlarni onlayn tartibda bajarish;
- professor-o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida teskari aloqa almashishni ta’minlash.

Keltirilgan imkoniyatlar yordamida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarning kompyuterning amaliy va instrumental dasturlaridan samarali foydalanishga, kompyuter uchun zamonaviy o‘qitish, boshqaruv tizimlarini ishlab chiqishga o‘rgatishga erishiladi.

Tahlil va natijalar. Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarini axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy vositalaridan foydalanishni samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Navoiy davlat konchilik instituti talabalari jalb etilib, ular tajriba (123 nafar) va nazorat (126 nafar) guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhiga tadqiqot doirasida taklif etilayotgan zamonaviy o‘quv vositalardan foydalanib informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitishda va talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda qo‘llanildi. Nazorat guruhiga esa bu imkoniyat berilmadi. Ushbu tajriba-sinovga jalb etilgan talabalarning natijalari tahlil etilib, ishonchligini tekshirish maqsadida Student-Fisher kritepiyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun mos o‘rta qiymatlar $\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 n_i X_i$, tarqoqlik koeffitsiyentlarini $D_n = \sum_{i=1}^3 \frac{n_i (x_i - \bar{X})^2}{n - 1}$ formuladan foydalanildi. Hisoblash natijasiga ko‘ra, tajriba guruhining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi, ya’ni 8,9 % ga oshganligi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib, aytganda texnika oliy ta’lim muassasalari

talabalarining axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda yuqorida keltirilgan interaktiv doskalardan, bulutli xizmatlarda, bulutga asoslangan platformalardan, masofaviy o‘qitish tizimlaridan, axborot-ta’lim muhitlaridan, ta’lim portallaridan va ta’limga oid web-saytlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Bular yordamida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarini rivojlanib kelinayotgan raqamli texnologiyalardan xabardor bo‘lishi va kelajakdagi kasbiy faoliyatida avtomatlashtirilgan vositalardan samarali foydalanishga tayyorlash imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Mirsanov U.M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.

2. Ruziyeva D.R. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida dasturlash tillarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Buxoro, 2023. – 179 b.

3. Toxirov F.J. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Qarshi, 2022. – 172 b.

4. Норбеков А.О. Педагогика олий таълим муассасаларида компьютер таъминоти фанини ўқитиш самарадорлигини ошириш методикаси // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация. – Қарши, 2021. –171 б.

5. Файзиева М.Р. Ўқув жараёнига мослашувчи WEB тизимларни яратиш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017. – 189 б.

6. Nuraliyeva P.E. Talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika

fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2023. – 48 b.

7. Каюмова Н.А. Электрон таълим муҳитида бўлажак информатика ўқитувчиларини интегратив ёндашув асосида тайёрлаш методикасини такомиллаштириш // Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2022. – 70 с

8. Luís Filipe Leite Barbosa. Boas Práticas na Programação Orientada a Objectos a Adoptar pelos Alunos de Informática do Ensino Superior. Tese de Doutoramento em Informática. Adelaide Isabel dos Santos Vieira Braga Sampaio Orientação de. Vila Real, 2017. – 396 p.

9. Ивкина Л.М. Формирование методической готовности будущих учителей информатики в условиях образовательной платформы «мега-класс» // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Красноярск – 2017. – 145 с.

10. Arturo Rojas López. Escenarios de aprendizaje personalizados a partir de la evaluación del pensamiento computacional para el aprendizaje de competencias de programación mediante un entorno b-Learning y gamificación. Octubre 2019. – 266.

Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA OID
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM
MUHITLARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

Sindarov Sadriddin Karshibayevich
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash muammolari va yechimlari, unga oid olib borilgan olimlarning ishlarini tahlili keltirilgan. Shuningdek, mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta’lim muhitlarining didaktik imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. axborot texnologiyalar, raqamli ta’lim muhiti, axborot-ta’lim muhiti, ta’lim portali, veb-sayt, mantiqiy fikrlash, algoritmik fikrlash, kompetentlik.

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СРЕДЫ ЦИФРОВОГО
ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

Синдаров Садриддин Каршибаевич
Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация: В данной статье представлен анализ проблем и решений подготовки будущих учителей и работы ученых, связанных с этим. Также в данной статье освещаются дидактические возможности цифровой образовательной среды в развитии информационно-технологической компетентности будущих учителей.

Ключевые слова: информационные технологии, цифровая образовательная среда, информационно-образовательная среда, образовательный портал, веб-сайт, логическое мышление, алгоритмическое мышление, компетентность.

**DIDACTICAL POSSIBILITIES OF THE DIGITAL EDUCATION
ENVIRONMENT IN THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND
TECHNOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS**

Sindarov Sadriddin
Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: This article presents an analysis of the problems and solutions of training future teachers and the work of scientists related to this. This article also highlights the didactic capabilities of the digital educational environment in the development of information and technological competence of future teachers.

Key words: information technology, digital educational environment, information and educational environment, educational portal, website, logical thinking, algorithmic thinking, competence.

Kirish. Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari kredit-modul tizimiga o‘tganligi tufayli ta’lim va tarbiya jarayonini raqamli texnologiyalar, shu jumladan

raqamli ta’lim muhitlari yordamida tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ta’lim jarayoni ishtirokchilari o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning yangi modellarini ishlab chiqish asosida o’qitishning shakllari va usullarni oliy ta’lim muassasalarining amaliyotga tatbiq etishda ba’zi bir muammolar paydo bo’lmoqda.

Shuning uchun oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda raqamli ta’lim muhitlaridan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Buning uchun dastlab ta’lim muhitlarning didaktik imkoniyatlarini, unga oid olib borilgan olimlarning ishlarini tahlil etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashda raqamli ta’lim muhitlaridan foydalanish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar G.C.Ergasheva [1], U.B.Baxodirova [2], U.M.Mirsanov [3], F.JToxirov [4], D.R.Ro’ziyeva [5], M.R.Fayziyeva [6], A.O.Norbekov [7], M.E.Vayndopf-Cicoeva [8], V.V.Gupa [9], O.V.Danilova [10], Arturo Rojas Lópeznani [11], Benjamin Clément [12] kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Ularning tadqiqotlarida bo’lajak o’qituvchilarning tayyorlashda axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari va ta’limga oid veb-saytlarlardan foydalanish nazariyasi va amaliyoti o’rganilgan.

Xususan, G.C.Ergasheva [1], U.B.Baxodirova [2]lar bo’lajak biologiya o’qituvchilarni tayyorlashda axborot-ta’lim muhitlari va ta’limiy veb-saytlarlardan foydalanish metodikasini ishlab chiqqan. Ularning bildirishicha, bo’lajak biologiya o’qituvchilarining mustaqil ta’lim olishida va mustaqil ta’limini samarali tashkil etishda axborot-ta’lim muhitlari va ta’limiy veb-saytlar quyidagi imkoniyatlarni ta’minlaydi:

- fanga oid o’quv ma’lumotlarni obrazli shaklda taqdim etadi;
- imkoniyati cheklangan talabalarning masofadan o’qitish imkoniyatini ta’minlaydi;
- talaba va professor-o’qituvchilarning o’zaro interaktiv aloqasini ta’minlaydi;
- turli interaktiv o’zaro ta’sir usullari bilan o’rganilayotgan o’quv materiallarni miqdorini oshiradi;

- talabalarning biologiya fanidan o‘quv ma’lumotlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish, takrorlash, topshiriqlarni bajarish imkoniyalari oshadi;

- talabalarning kelgusi kasbiy faoliyatida interaktiv elektron ta’lim resurslardan samarali foydalanishga oid ko‘nikma, malakalarini shakllantirishga va rivojlantirishga erishiladi;

- laboratoriya ishlarini turli joyda va vaqtda virtual shaklda o‘tkazishga erishiladi;

- nazorat va diagnoostik dasturiy vositalar asosida talabalar o‘zini-o‘zi mustaqil baholashga zamin yaratadi.

U.M.Mirsanov [3], F.J.Toxirov [4], D.R.Ro‘ziyeva [5]lar bo‘lajak informatika o‘qituvchilarni tayyorlashda kasbiy fanlardan biri hisoblangan, ya’ni dasturlash tillarini o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning dasturlashga oid mantiqiy, algoritmik, kreativ, kognitiv fikrlashini rivojlantirishda axborot-ta’lim muhitlari va ta’lim portallari zamonaviy pedagogik dasturiy vosita bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlagan. Ularning bildirishicha, dasturlash tillarini o‘qitishda axborot-ta’lim muhitlari va ta’lim portallaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni ta’minlaydi:

- informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan, jumladan, dasturlash tillariga oid ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini onlayn tartibda o‘tkazish;

- tarmoq orqali dasturlashga oid loyiha va guruh ishlarini muhokama qilish;
- dasturlashga oid mustaqil topshiriqlarni onlayn tartibda olish va topshiriqlarni jo‘natish;

- professor-o‘qituvchidan onlayn rejimda maslahat olish;

- o‘zini-o‘zi mustaqil baholash;

- o‘tkaziladigan oraliq va yakuniy nazoratlarni onlayn tartibda bajarish;

- ko‘p qamrovli va ko‘p funksiyaliligi;

- xohlagan joyda va vaqtda ta’lim olishga mo‘ljallanganligi;

- fanni to‘liq o‘zlashtirishga mo‘ljallangan didaktik raqamli o‘quv vositalar mujassamlashganligi;
- professor-o‘qituvchi va o‘quvchi-talabalar o‘rtasida teskari aloqani amalga oshirish mavjudligi;
- o‘quvchi-talabaning mustaqil ravishda o‘zini-o‘zi baholashga mo‘ljallanganligi.

Mazkur masalalar bo‘yicha M.R.Fayziyeva ham izlanishlar olib borgan. Uning bildirishicha, “Web-dasturlash” fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning dasturlashga oid mantiqiy, algoritmik fikrlashini rivojlantirishda hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirishda masofaviy o‘qitish tizimlari, ta’lim platformalari samarali o‘qitish tizimi sifatida xizmat qiladi [6].

A.O.Norbekovning bildirishicha, bo‘lajak matematika va informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy fan sifatida o‘qitiladigan informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarga axborot-ta’lim muhitlaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi [7]:

- ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarni onlayn tartibda o‘tkazish;
- tarmoq orqali loyiha va guruh ishlarini muhokama qilish;
- mustaqil topshiriqlarni onlayn tartibda olish va topshiriqlarni jo‘natish;
- professor-o‘qituvchidan onlayn rejimda maslahat olish;
- o‘tkaziladigan oraliq va yakuniy nazoratlarni onlayn tartibda bajarish;
- ko‘p qamrovli va ko‘p funksiyaliligi;
- xohlagan joyda va xohlagan vaqtda ta’lim olishga mo‘ljallanganligi;
- fanni to‘liq o‘zlashtirishga mo‘ljallangan didaktik elektron o‘quv resurslar mujassamlashganligi;
- teskari aloqa mavjudligi (professor-o‘qituvchi va talabaning o‘zaro ma’lumot almashinishi);
- talabaning mustaqil ravishda o‘zini-o‘zi baholashga mo‘ljallanganligi.

M.E.Vayndopf-Cicoeva [8], V.V.Gupa [9], O.V.Danilova [15]larning fikriga ko‘ra, ochiq axborot-ta’lim muhitidan foydalanish bir vaqtda bir necha jihatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

- ta’lim trayektoriyasini qurish imkoniyatlarini kengaytirish;
- zamonaviy ta’lim resurslaridan foydalanish;
- ta’lim oluvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish;
- ta’lim jarayonining shaffofligini oshirish;
- ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan muloqotni tizimlashtirish va soddalashtirish;
- o‘quv jarayonini monitoring qilish qulayligini oshirish va takomillashtirish;
- topshiriqlarni onlayn taqdim etish va ta’lim oluvchilarni rag‘batlantirish uchun yangi shart-sharoitlarni shakllantirish;
- ta’lim oluvchilarning individual ta’lim traektoriyasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tashkil etish;
- avtomatlashtirish hisobiga byurokratik yukni kamaytirish.

Arturo Rojas Lópeznani, Benjamin Clémentlarning bildirishiga ko‘ra, raqamli texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni ta’minlaydi [11, 12]:

- o‘quv jarayonida bir vaqtning o‘zida o‘quvchilar idrok etishning bir nechta funksiyalaridan foydalanishi, buning natijasida turli xil sezgilar orqali yetkazilgan ma’lumotlarning integratsiyasiga erishiladi;
- jarayonlarning dinamik namoyishi tufayli mavhum ma’lumotni vizualizatsiya qilish;
- o‘quvchilarning o‘rganilayotgan o‘quv-ma’lumotlarni keng tarbiyaviy, ijtimoiy, tarixiy kontekstni yaratish.

Bu kabi fikrlar E.A.Baraxsanova [14], E.Z.Vlasova [14], N.D.Neustroev [15], A.N.Neustroev [15]larning maqolalarida ham keltirilgan bo‘lib, ularning bildirishicha, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar, shu jumladan raqamli ta’lim muhitlari zamonaviy o‘quv vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Jumladan, E.A.Baraxsanova, E.Z.Vlasovalarning fikriga ko‘ra, o‘quv jarayonida axborot-ta’lim muhitlaridan foydalanish orqali zamon talabalariga mos bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash imkonini beradi [14]. N.D.Neustroev, A.N.Neustroevlarning bildirishicha, jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish ko‘plab omillar, xususan, axborot-ta’lim muhiti va infratuzilmani hisobga olgan holda ta’lim sifati va mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi [15]. YE.Z.Vlasovanning ta’kidlashicha, mintaqaviy ta’lim makonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) yangilash tezligi oliy ta’lim muassasalarida global tarmoqning manzillarida joylashtirilgan ta’lim muhitlardan foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Uning fikriga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etishda ta’lim muhitlari zamonaviy ta’lim texnologiyasi bo‘lib xizmat qiladi [16]. E.A.Baraxsanova, M.S.Prokopez, Yu.V.Kornilov, T.N.Lukina, V.A.Varlamova, M.A.Sorochinskiy, A.M.Nikolaevlarning fikricha, ta’lim jarayonida global tarmoqqa mo‘ljallangan didaktik elektron ta’lim resurslardan foydalanish orqali mashg‘ulotlarni samarali olib borishga va talabalarning diqqatini jamlashga, motivatsiyasini oshirishga erishiladi hamda mustaqil ta’lim olish uchun o‘quv manbalar bilan ta’minlash imkonini beradi [17, 18].

Mazkur masalalarni M.Y.Mamontova, M.Mamontova, P.Zuev, M.V.Lapenok, O. M.Lapenok, A. A.Simonovalar biroz boshqacharoq talqin etadi. Ularning fikriga ko‘ra, raqamli ta’lim muhitlaridan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning ko‘nikma va malakalarini oshirish, yangi muammolarni o‘rganish, muqobil yechimlarni topish, ma’lum yechim usullarini birlashtirish va yangi, faoliyat algoritmlarini yaratish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiga oid didaktik materiallarni ishlab chiqish, mashg‘ulotlarni raqamli ta’lim texnologiyalar yordamida loyihalash, mustaqil ravishda turli loyiha ishlarini bajarish imkonini beradi [19, 20, 21].

Shuningdek, ushbu masalalar bo‘yicha izlanishlar va fikrlarni xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida ham ko‘rish mumkin. Ularning tadqiqotlarida, o‘qituvchi va menejrlarni tayyorlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish g‘oyasi ilgari surilgan.

Xususan, Schulz, Renée, Ghislain Maurice Isabwe, and Frank Reichertlarning tadqiqotida ta’lim jarayoniga innovatsion elektron axborot va ta’lim vositalarini tatbiq etish kontekstida o‘qitish faoliyatining modifikatsiyalari taqdim etilgan. Ularning bildirishicha, vebga mo‘ljallangan o‘quv vositalar yordamida talabalarning mustaqil ta’lim olishga va mustaqil ta’lim topshiriqlarini samarali bajarish imkoniyatiga erishiladi [22]. Chen Min elektron ta’limning tarqalishi kontekstida o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jihatlarini tahlil qiladi [23]. Uning tahlil xulosalariga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda elektron ta’lim resurslar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Keltirilgan olimlarning ishlarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitlari bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim maqsadlariga erishishda qo‘llab-quvvatlash va ularni yangi natijalarga erishishga undash, ma’lum vaqt oralig‘ida o‘sish dinamikasini qayd etish, bajarilgan ishlarning ko‘lami va sifatini taqdim etish imkonini beradigan usullardan biri sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ravishda ta’lim olish, o‘z fikrini mustaqil bayon etish, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish, dalillar zanjirini qurish, xatolarni aniqlash, mohiyatga e’tibor qaratish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi [24]. Shu bilan birga, didaktik materiallarni loyihalashga oid kognitiv faollikni oshirish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, materialni ongli ravishda idrok etishga yo‘naltiradi [25].

Tadqiqot metodologiyasi. Shunday qilib, yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, rivojlangan raqamli texnologiyalar davrida bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetentligini rivojlantirish uchun global tarmoqning manzillarida joylashgan raqamli ta’lim muhitlari, jumladan axborot-ta’lim muhitlari, ta’limiy portallar va ta’limga oid veb-saytlardan foydalanish oliy ta’limning asosiy

vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur muhitlar yordamida tashkil etilgan ta’lim va tarbiya jarayoni professor-o‘qituvchining rolini o‘zgartiradi hamda talabalarning mustaqil ravishda bilim olishga, turli qidiruv tizimlaridan foydalanish orqali zamonaviy bilimlar olish imkonini beradi va quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

1) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini hosil qilish orqali ta’lim maqsadlarini ishlab chiqish va bo‘ljak o‘qituvchilarning mustaqil ravishda ta’lim olishni hamda o‘zini-o‘zi nazorat qilish;

2) ta’lim mazmunini interfaol va tegishli shaklda loyihalash hamda bo‘ljak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim resurslardan foydalanish orqali tadqiqot, loyihalash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

3) bulutli xizmatlardan foydalanish orqali virtual muhitda ta’lim olish, onlayn muhkoma qilish, onlayn ta’limiy tadbirlar o‘tkazish.

Shu bilan birga, raqamli ta’lim muhiti o‘quv jarayonini noan’anaviy ravishda qiziqarli tashkil etish orqali bo‘ljak o‘qituvchilarni faol tinglovchiga aylantiradi. Natijada, ta’lim oluvchini ongli ravishda ta’lim faoliyatining faol tinglovchisiga aylanishi tufayli bilimlarni o‘zlashtiradi, bu albatta kognitiv fikrlashni oshirishga yordam beradi hamda faollik va o‘rganish uchun motivatsiyani oshiradi.

Shuningdek, raqamli ta’lim muhiti ta’lim oluvchi va beruvchi o‘rtasida vositachi bo‘lib xizmat qiladi. Bu individual dasturga muvofiq o‘quv jarayonini tashkil qilish imkonini beradi. Global tarmoqqa mo‘ljallangan raqamli ta’lim muhitida tahsil olayotgan bo‘ljak o‘qituvchilar, unga eng qulay o‘quv-ma’lumotni yetkazib berish va assimilyatsiya tezligini tanlashi mumkin. Bu o‘quv jarayonida har bir bo‘ljak o‘qituvchi uchun individual o‘quv imkoniyatlarini yaratadi.

Tahlil va natija. Ilmiy-izlanishlarimiz natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida bo‘ljak o‘qituvchilarni tayyorlashda global tarmoqning manzillarida joylashtirilgan ta’lim muhitini keng joriy etilishi quyidagi imkoniyatlarni ta’minlaydi:

- bulutli xizmatlardan samarali foydalanish malakasini oshirish;
- mustaqil ta’limini va mustaqil ishlarini tashkil etishni raqamlashtirish;

- qidiruv va muammoli-amaliy faoliyatni rag‘batlantirish (turli xil ta’lim resurslari bilan interfaol aloqalar, matnli giperhavolalardan foydalanish, modellashtirish va boshqalar);
- individual mashg‘ulotlarni o‘tkazish (individual xususiyatlarni hisobga olgan holda qiyinchilik darajasini tanlash, o‘qish sur‘atini boshqarish va boshqalar);
- professor-o‘qitishning interaktivligi (onlayn muhitlarda muloqot olib borish qobiliyati);
